

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Fakultet: “Servis va turizm”

Kafedra: “Xalqaro turizm va turizm servisi”

«Himoyaga tavsiya etildi»

Kafedra mudiri,

i.f.n. R.S.Amriddinova

Bayonnoma № 11 15 iyun 2015 y.

**5610200 – “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi**

**MXT-311 guruhi talabasi Sharipov G‘afur
Mardonovichning “Mehmonxona qurilishida milliy va
zamonaviy uyg‘unlikning tutgan o‘rni (Samarqand
viloyati mehmonxonalari misolida)” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, i.f.n. Raximov Z.O.

SAMARQAND – 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-BOB. Turizm sohasida mehmonxonalar xo‘jaligining o‘rni va ahamiyati.....	5
1.1. Mehmonxona xizmatlarining tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlari.....	5
1.2. Mehmonxona industriyasining zamonaviy rivojlanishi.....	12
1.3. Zamonaviy mehmonxonalarning turlari.....	19
2-BOB. Mehmonxona qurilishini milliy va zamonaviy uyg‘unligining rivojlanish istiqboli.....	23
2.1. Eng zamonaviy, yirik va g‘aroyib dunyo mehmonxonalari.....	23
2.2. Xalqaro mehmonxonalarning rivojlanishi.....	37
2.3. Mehmonxona qurilishida mehmonxonalarni tavsiflovchi belgilar.....	38
3-BOB. Samarqand viloyati mehmonxonalarining qurilishida milliy va zamonaviy uyg‘unlikni rivojlantirishning samarali yo‘llari.....	43
3.1. Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati mehmonxonalarining qurilishidagi ijobiy o‘zgarishlar.....	43
3.2. Turistik xizmatlarni tashkil etishda sayyohlar xavfsizligini ta’minlash yo‘llari.....	51
XULOSA.....	54
TAKLIFLAR.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlari ancha jo‘shqin rivojlanmoqda. Bu mehmonxona servisinde band bo‘lgan tijoratchilarga katta imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekiston bilan chet elda mehmonxona ishini tashkil etishdagi keskin tafovutlar asta-sekin yo‘qolib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining mehmonxona korxonalari mijozlarga xizmat ko‘rsatish saviyasini, nomerlarning shinamligi va qulayligi darajasini, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning malakasini izchil oshirib bormoqdalar.

Mehmonxona servisi korxonalarining rang-barangligi, shuningdek, vaqti-vaqti bilan mehmonxona xizmati yangi-yangi turlarining paydo bo‘lishi joylashtirish korxonalari tasnifi va tipologiyasini ancha shartli qilib qo‘yadi.

Samarqandning zamonaviy mehmonxona binolari arxitekturasini bugungi kunda shaharda yangi qurilgan va qurilayotgan mehmonxonalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular turizm sohasi arxitekturasini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Samarqand shahri arxitekturasining taraqqiyoti va istiqboldagi kelajagi uchun bu sohadagi bugungacha bajarilgan ishlar ilmiy tahlil qilinishi, umumlashtirilishi va tegishli xulosalar chiqarilishi kerak.

Me‘morlarimizning ijodiy ishlari ko‘lamini ko‘zdan kechirsak, so‘nggi o‘n yil ichida Samarqand shahri arxitekturasining kelgusidagi ulkan taraqqiyotini his etish mumkin. Bu o‘rinda arxitekturaning g‘oyaviy tomonlari, milliylik va zamonaviylikning birlashgan holda olib borilayotganligini ta’kidlashimiz lozim.

Samarqand shahri Mustaqillik yillari arxitekturasining o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri bu milliy va umummilliy arxitektura rivoji tamoyillarini hisobga olgan holda hayotga tadbiq etishdir. Biz ana shu imkoniyatlarni hisobga olib mazkur bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob’ektlarini, predmetini va maqsadini belgilashga muyassar bo‘ldik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Turizm sohasining rivojlanishida mehmonxona qurilishini milliy va zamonaviy uyg'unligi borasida ilmiy jihatdan asoslangan xulosa va takliflarni ishlab chiqishdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish ko'zda tutilgan:

- turizm sohasida mehmonxonalar xo'jaligining o'рни va ahamiyati o'rganish;
- Jahonda qurilgan eng zamonaviy, yirik va g'aroyib dunyo mehmonxonalarini yoritib berish;
- Mehmonxona qurilishida mehmonxonalarni tavsiflovchi belgilar mohiyatini ochib berish;
- Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati mehmonxonalarining qurilishidagi ijobiy o'zgarishlarini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Samarqand viloyati turizm sohasidagi mehmonxonalarning milliy va zamonaviy uyg'unlik borasidagi bunyodkorlik ishlari kiradi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Samarqand viloyatining turizm sohasida mehmonxona qurilishidagi milliy va zamonaviy me'morchiligi bo'yicha istiqboldagi taraqqiyoti uchun mo'ljallangan ilmiy munosabatlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va 56 betdan iborat bo'lib, yozma matni kompyuterda bajarilgan. Ishda 3ta jadvallar va 2ta rasmlar keltirilgan.

1-BOB. TURIZM SOHASIDA MEHMONXONALAR XO‘JALIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI

1.1. Mehmonxona xizmatlarining tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlari

Aksariyat mualliflar «mehmonxona» tushunchasiga boshqa joydan mehmon bo‘lib kelgan kishilar uchun vaqtincha yashab turishga mo‘ljallab qurilgan maxsus bino deb ta’rif beradilar. Dastlabki mehmonxona ko‘rinishidagi binolar Ossuriyada (miloddan avvalgi X asr) bo‘lgan. Bu turdagi binolar turli xalqlarning yashash sharoitlari bilan bog‘liq ravishda turlicha atalgan. Masalan, O‘rta Osiyoda karvonsaroy, rabot, zoviya, arablarda «xon», Rossiyada «gostiniy dvor», «korchma», Fransiya va Ispaniyada «taverna», inglizlarda «inna», yaponlarda «ryokan» kabi. XVIII asrdan boshlab Fransiyada «otel» nomi bilan yuritila boshladi. Keyinchalik bu nom boshqa mamlakatlarga ham tarqaldi.

Mehmonxona o‘z nomi bilan mehmon kutishni, ya’ni uning ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadi. Sog‘lom fikr nuqtai nazaridan, insonning odatdagi ehtiyojlari – ovqatlanish, dam olish va uxlashga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirmasdan, mehmondo‘stlik haqida so‘z yuritish mumkin emas. Bu ma’noda mehmonxonaning quyidagi ta’rifi asosli va mantiqiy bo‘lib ko‘rinadi.

Mehmonxona – uyidan tashqaridagi odamlarga kompleks xizmatlar ko‘rsatuvchi korxona bo‘lib, ular orasida joylashtirish va ovqatlantirish xizmatlari teng darajada muhim (kompleks hosil qiluvchi) xizmatlardir.

Ushbu ta’rifda mehmonxonada ikki asosiy xizmat – joylashtirish va ovqatlantirishning bo‘lishi shartligi ko‘rsatiladi. Bunda ularning o‘zaro nisbati jiddiy farq qilishi mumkin.

Joylashtirish xizmatining mazmuni shundan iboratki, birinchidan, mijozlarga maxsus xonalar (mehmonxona nomerlari) foydalanishga beriladi, ikkinchidan, ularga muayyan xizmatlar ko‘rsatiladi, bu vazifa mehmonxona xodimlari tomonidan bevosita amalga oshiriladi.

Mehmonxona nomerlari joylashtirish xizmatining muhim tarkibiy qismidir. Mehmonxona nomeri deganda unda yashaydigan mehmonning dam olishi, uxlashi va ishlashi uchun mo'ljallangan ko'p funksiyali xonalar tushuniladi.

Mehmonxonalarda har xil toifali nomerlar mavjud bo'lib, ular maydoni, jihozlanishi, shinamligi va h.k.ga ko'ra farq qiladi. Biroq, qaysi toifaga mansubligidan qat'i nazar, har bir mehmonxona nomerida quyidagi mebel va jihozlar bo'lishi shart:

- karavot;
- har bir o'rin hisobidan bittadan stul yoki kreslo;
- har bir karavot hisobidan bittadan tumbochka yoki tungi stol;
- kiyim-kechak uchun shkaf;
- umumiy yoritish moslamalari;
- axlat uchun savatcha.

Bundan tashqari, har bir nomerda mehmonxona to'g'risida ma'lumot va yong'in chiqqan holda evakuatsiya qilish rejasi bo'lishi lozim.

Ovqatlantirish xizmati turli jarayonlar: ishlab chiqarish (oshxonada ovqat tayyorlash), savdo (tayyor taomlar, spirtli va spirtsiz ichimliklarni sotish), servis (restoran, bar, kafe, mehmonxona nomerlarida ofitsiantlar tomonidan mehmonlarga xizmat ko'rsatish) jarayonlaridan tarkib topadi.

Qo'shimcha yoki boshqa xizmatlarga basseyn, sport zali, konferenszal, muzokaralar zali, avtomobillarni ijaraga berish, kimyoviy tozalash, kir yuvish, sartaroshxona, massaj kabineti xizmatlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlar kiradi.

Mehmonxona korxonasida joylashtirish, ovqatlantirish xizmatlari va qo'shimcha xizmatlar bir-birini to'ldiradi, aksariyat hollarda bir-biriga bog'liq bo'ladi va mehmonlar tomonidan yaxlit deb qabul qilinadi. Xizmatlar qanday rasmiylashtirilgani va yagona kompleksga birlashtirilganiga qarab, mehmonxona korxonasining muayyan turi shakllanadi.

Mehmonxonalar tipologiyasi

Mehmonxona turi	Tavsifi
Otel-lyuks	Sig'imiga ko'ra kichik yoki o'rta korxonalarga kiradi. Odatda shahar markazida joylashadi. YAxshi o'rgatilgan xodimlar eng talabchan mijozlar, chunonchi: konferensiyalar, ishga doir uchrashuvlarning qatnashchilari, biznesmenlar va h.k.ga yuksak darajada sifatli xizmatlar ko'rsatadi. Nomer bahosi ancha qimmat bo'ladi va mumkin bo'lgan barcha turdagi xizmatlarni o'z ichiga oladi.
Mehmonxona (o'rta klass)	Sig'imiga ko'ra otel-lyuksdan katta (400-2000 o'rin). SHahar markazida yoki shahar doirasida joylashadi. Ancha keng xizmatlar to'plamini taklif qiladi. Narxlar mehmonxona joylashgan mintaqada darajasida yoki biroz yuqori bo'ladi. Biznesmenlar, yakka turistlar, kongresslar, konferensiyalarning ishtirokchilari va h.k.ni qabul qilishga mo'ljallangan.
Mehmonxona-apartament (apart-otel)	Sig'imiga ko'ra kichkina yoki o'rtacha mehmonxonalar qatoriga kiradi (400 tagacha o'rin). Aholisi noturg'un bo'lgan yirik shaharlarga xos. Kvartira tipidagi nomerlarni taklif qiladi. Ulardan vaqtinchalik yashash joyi sifatida, ko'pincha o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish negizida foydalaniladi. Narxlar yashash muddatiga qarab belgilanadi. Oilasi bilan safarga chiqqan turistlarga, uzoq muddatga to'xtovchi biznesmenlar, tijoratchilarga xizmat ko'rsatadi.
Iqtisodiy klass mehmonxonasi	Kichik yoki o'rtacha sig'imli korxona (150 tagacha va undan ko'proq o'rin). Magistral yo'llar yaqinida joylashadi. Sodda va tez xizmat ko'rsatish xos. Ko'rsatiladigan xizmatlar to'plami cheklangan. Foydalanuvchilar – to'liq pansionga muhtoj bo'lmagan, faqat amalda foydalangan xizmatlariga haq to'lashga harakat qiladigan biznesmenlar va yakka turistlar.
Otel-kurort	Sig'imi har xil bo'lgan, mehmondo'stlik xizmatlarining to'liq majmuini taklif qiluvchi korxona. Bundan tashqari, maxsus tibbiy xizmat ko'rsatish va parhez ovqatlantirish majmuini ham o'z ichiga oladi. Kurort joylarda joylashadi.
Motel	SHahar tashqarisida, avtomobil magistrallari yoqasida joylashgan oddiy bir qavatli yoki ikki qavatli qurilmalar. Kichik yoki o'rta korxonalar qatoriga kiradi (400 tagacha o'rin). Xodimlari soni uncha ko'p bo'lmaydi. Xizmat ko'rsatish darajasi – o'rtacha. Asosan avtomobilda safarga chiqqan har xil toifa turistlarga xizmat ko'rsatadi.
Tunash uchun joy va nonushta bilan ta'minlovchi xususiy mehmonxona	Ushbu turdagi mehmonxonalar AQSHda keng tarqalgan. Kichik, ba'zan o'rtacha sig'imli mehmonxona. SHahar tashqarisida yoki qishloqda joylashadi. Qoida tariqasida, mijozlarga nonushta va uy sharoitida engil kechki ovqat taklif qilinadi. Mehmonxona xizmatidan odatda uyga xos bo'lgan shinamlikka intiluvchi tijoratchilar va muayyan yo'nalish bo'ylab safarga chiqqan turistlar foydalanadi.
Otel-garni	Mijozlarga cheklangan miqdorda xizmatlar: joylashtirish va kontinental nonushta taklif qiluvchi korxona
Pansion	Oddiy standart bo'yicha ishlaydigan va xizmatlar doirasi cheklangan korxona. Otel-garnidan farqli o'laroq, bu erda nonushta, tushlik va kechki ovqat (to'liq pansion) taklif qilinadi. Ammo ovqatlanish xizmatlaridan faqat bu erda yashaydigan mijozlar foydalanishi mumkin.
Rotel	Bir-ikki o'rinli bo'limlardan iborat vagon ko'rinishidagi ko'chma mehmonxona. Bo'limlarda uxlash uchun mo'ljallangan kreslolar o'rnatilgan.

	Kiyim almashtirish uchun bo'lim, hojatxona, oshxona, muzlatgich mavjud.
Botel	Suv ustidagi kichkina mehmonxona. Tegishli tarzda jihozlangan kemadan botel sifatida foydalaniladi.
Flotel	Yirik mehmonxona. Ko'pincha «suv ustidagi mehmonxona» deb ataladi. Turistlarga shinam nomerlar va keng xizmatlar: basseymlar, suv chang'isi, baliq ovlash anjomlari, suv ostida suzish, suv ostida ov qilish, trenajyor zallari, kongresslar va konferensiyalar uchun mo'ljallangan zallar, kutubxonalar, har xil axborot ta'minoti (telefon, telefaks, teletayp, televizor va h.k.) taklif qilinadi. So'nggi vaqtda biznes-turlar, kongress-turlar, kongress-kruizlar, ma'rifiy turlar tashkil etish uchun ko'p foydalanilmoqda.
Flaytel	Aeromehmonxona yoki «uchuvchi otel». O'ta qimmat va kam uchraydigan mehmonxona turi. Qo'nish maydonchasi hamda ob-havo xizmati bilan aloqa vositasiga ega.

Har bir davlatda uning jug'rofiy o'rnini, iqlimi, boshqa bir qancha omillardan va eng muhimi – talabdan kelib chiqib, o'z korxona turlari shakllanadi.

Mehmonxona taklifining kompleks xususiyatini qayd etish imkonini beruvchi «mehmonxona mahsuli» atamasi boshqarish amaliyotida keng qo'llaniladi.

Nafaqat mehmonxonalar, balki boshqa korxonalarning ham faoliyati ko'p jihatdan ularning joylashgan o'rniga bog'liq bo'ladi, chunki bu erning narxi va qurilish ishlari qiymatiga, mehnatga haq to'lash xarajatlariga, shuningdek, mahsulotni sotish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatadi. Korxonani qayerda joylashtirish masalasini hal qilishda birinchi navbatda mana shu omillar e'tiborga olinadi. Xom ashyo resurslari, ishchi kuchi, tegishli infratuzilmaning mavjudligi va h.k. ikkilamchi omillarga kiradi. Ularning ahamiyati barcha korxonalar uchun bir xil emas. Qaysi omillar etakchilik qilishiga qarab xom ashyo resurslari, mehnat resurslari, aloqa yo'llari yoki mahsulotni sotishga yo'naltirilgan korxonalar farqlanadi.

Mehmonxona korxonalari, birinchi navbatda, mahsulotni sotishga yo'naltiriladi. Mahsulot iste'molchiga etkazib beriladigan sanoatdan farqli o'laroq, mehmonxonalar sohasida buning teskarisi sodir bo'ladi: mehmonxona xizmatlaridan foydalanish uchun mehmon bu erga kelishi talab etiladi. SHundan kelib chiqib, mehmonxona korxonasini joylashtirish o'rniga yaqinlik va qulaylik kabi talablar qo'yiladi. Masalan, ishbilarmon turistlar muayyan mehmonxonani

tanlashda asosan uning qulay erda joylashganligi omilidan kelib chiqadilar (mehmonxona shahar markazida joylashgani ma'qul).

Mehmonxona xizmatlariga mahsulot deb qaralganda, mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning uch darajasi farqlanadi:

- 1) alohida xizmatlar va xizmatlarning guruhlar;
- 2) «mehmonxona» mahsuli - xizmatlar kompleksi;
- 3) kengaytirilgan mahsul.

Mehmonxona kompleks, yagona mahsul sifatida ikkinchi (o'rta) darajani tashkil etadi. U birinchi (ichki) darajani tashkil etadigan ko'plab alohida xizmatlardan, chunonchi: xodimlar, oshxona, portelar, metrdotellar xizmatidan tashkil topadi. «Mehmonxona» mahsuli mehmonxonada ko'rsatiladigan xizmatlarni to'ldiruvchi mehmonxona joylashgan hududdagi takliflar bilan birgalikda uchinchi (tashqi) daraja – kengaytirilgan «mehmonxona» mahsulini tashkil qiladi.

Mehmonxona xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarish va foydalanish jarayonlari bir vaqtda sodir bo'lmaydi.
2. Saqlash imkoniyatlari cheklangan.
3. Mehmonxona xizmatlari muddatli xususiyatga ega.
4. Ishlab chiqarish jarayoniga mehmonxona xodimlari keng jalb qilinadi.
5. Mehmonxona xizmatlariga bo'lgan talab mavsumiy xususiyatga ega.
6. Mehmonxona xizmatlari va sayohat (safari) maqsadlari o'zaro bog'liq.

Ishlab chiqarish va foydalanish jarayonlarining bir vaqtda sodir bo'lmashligi. Xizmatlarga xos bo'lgan umumiy xususiyat – ishlab chiqarish va foydalanish jarayonlarining bir vaqtda sodir bo'lishi, uzluksizligi mehmonxonada ko'rsatiladigan xizmatlar kompleksiga nisbatan to'liq amal qilmaydi. Ayrim mehmonxona xizmatlari bu erda mijozning mavjudligi bilan bog'liq emas. Masalan, nomerni tozalash va uni sotishga tayyorlash joyi va vaqtiga ko'ra retsepsiya xizmatida nomerning sotilishi va unga mijozning bevosita joylashishi vaqti bilan mos kelmaydi. Ovqatlantirish xizmatlari ko'rsatish jarayonlari ham bir

vaqtda sodir bo'lmashligi bilan tavsiflanadi: aksariyat hollarda ovqatlar boshqa joyda va qisman mijoz hozirligida amalga oshiriluvchi dasturxonni tuzash va taomni tortish jarayonlaridan farqli bo'lgan boshqa vaqtda tayyorlanadi. Mehmonxona korxonasi tegishli jarayonlarni shunday tarzda ajratishga majbur. Bu erda bevosita xizmatlar ko'rsatish uchun ma'lum vaqtda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talabni qondirishga mo'ljallangan tayyorgarlik ishlari amalga oshirilishi lozim.

Saqlash imkoniyatlarining cheklanganligi. Umuman olganda, mehmonxona xizmatlari kompleksi kelgusida sotish uchun saqlab qolinishi mumkin emas. Agar joriy kun davomida mehmonxona nomeri sotilgan bo'lmasa, uni shu kun uchun qo'shimcha tarzda sotish mumkin emas. Bu ovqatlanish xizmatlariga ham tegishli. «Taomlar va ichimliklar» tipidagi moddiy xizmatlarni ma'lum darajada (yo'l qo'yilgan realizatsiya qilish muddati davomida) saqlash mumkin bo'lsa-da, ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq xizmatlar talab qilinmay qoladi va ularga haq to'lanmaydi.

Mehmonxona xizmatlarining muddatliligi. Mehmonxona korxonasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolar tez hal qilinishi lozim. Mehmonxonani tanlashda ushbu omil, uning joylashgan o'ri bilan birga, muhim ahamiyatga ega. Ayrim mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish vaqti hatto sekundlar bilan o'lchanadi. Zamonaviy mehmonxonalar orasida eng tez xizmat ko'rsatishni Tokio shahridagi mehmonxona taklif qiladi. Bu erda tashrif buyurgan mehmonni rasmiylashtirish, haq to'lash, kalitlarni olish va boshqa shunga o'xshash xizmatlar uchun sarflanadigan vaqtning yuqori chegarasi 45 sekund bilan cheklangan. Vaholanki, aksariyat mehmonxonalarda yuqorida zikr etilgan operatsiyalarni amalga oshirishga 10-15 minut beriladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga mehmonxona xodimlarining keng jalb qilinishi. Ishlab chiqarish jarayonida xodimlarning keng ishtirok etishi mehmonxona xizmatlarining muhim xususiyatidir. Ko'proq mashina va avtomatlardan

foydalaniladigan sanoat xizmatlaridan mehmonxona xizmatlari aynan shu jihati bilan farq qiladi. Inson omilining jalb qilinishi sifatning har xilligi, o'zgaruvchanligiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu mehmonxona xizmatlarining rivojlanishi sohasidagi muhim muammolardan biri bo'lib qolayotir. Mazkur muammoni hal qilish uchun aksariyat mehmonxona korxonalarida xizmatlar ko'rsatish standartlari – ijro etish uchun majburiy bo'lgan mijozlarga xizmatlar ko'rsatish qoidalari majmui ishlab chiqiladi. Bunday standartlarni belgilashdan maqsad amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarning sifati belgilangan darajada bo'lishini kafolatlashdan iboratdir. Mehmonxona korxonasida mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasiga va xodimlar faoliyatiga standartda belgilangan mezonlarga qarab baho beriladi. Bunday mezonlarga asosan quyidagilar kiradi:

- axborot olish yoki bronlash haqidagi qo'ng'iroqqa javob berish vaqti (15, 20, 30 sekund);
- joylashtirish xizmatida hujjatlarni rasmiylashtirish vaqti. Tashrifning ommaviyligidan qat'i nazar, mijozlar muayyan mehmonxona
- korxonasida belgilangan vaqt (5, 10, 15 minut)dan ortiq navbatda turib qolmasligi kerak;
- muayyan xizmatni ko'rsatishga sarflanadigan vaqt. Masalan, bagaj nomerga mijoz joylashganidan keyin 3 minutdan kechikmay etkaziladi;
- nomerlarda yashovchi mijozlarning shaxsiy buyumlarini yuvish va tozalash bir sutka ichida amalga oshiriladi va h.k.;
- xizmatlar ko'rsatuvchi xodimlarning tashqi ko'rinishi hamda rasmiy kiyim (uniforma)ning mavjudligi;
- xodimlarning chet tillarni bilishi va h.k.

Mehmonxona xizmatlariga bo'lgan talabning mavsumiyligi. Yil mavsumiga (aksariyat turistlar yoz oylarida dam oladi), shuningdek hafta kunlariga (ishbilarmon turistlar mehmonxonaga ish kunlari tashrif buyuradi) qarab talabning o'zgarib turishi mehmonxona xizmatlari bozoriga xos xususiyat bo'lib, u mehmonxonalar nomerlarining yuklanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Mehmonxona xizmatlari va sayohat (safar) maqsadlarining o'zaro bog'liqligi. Mehmonning muayyan joyga tashrif buyurish haqidagi qarori odatda bu erda muayyan mehmonxonaning mavjudligi omiliga asoslanmaydi. Bunday qaror butunlay boshqa omillarga, chunonchi: dam olish, sport bilan shug'ullanish, davolanish imkoniyatining mavjudligiga qarab qabul qilinadi. Mehnat ta'tili vaqtida safarga chiqishni rejalashtirgan odam avval safar uchun muayyan joyni yoki mintaqani, balki butun mamlakatni tanlaydi. Faqat shundan keyingina u ma'qul mehmonxona korxonasini yoki boshqa joylashtirish vositasini tanlash haqida bosh qotiradi. Ammo tanlashda bunday ketma-ketlik doim ham amal qilavermaydi. Agar shaxs o'z tajribasidan muayyan mehmonxona bilan tanish bo'lsa, tanlash jarayoni teskari ketma-ketlikda sodir bo'lishi ham mumkin.

1.2. Mehmonxona industriyasining zamonaviy rivojlanishi

So'nggi yillarda mehmondo'stlik sanoati korxonalarining rivojlanishida ko'zga tashlangan tendensiyalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mehmonxona va restoran xizmatlari ixtisoslashuvining chuqurlashishi;
2. Xalqaro mehmonxona va restoran tarmoqlarining tashkil topishi;
3. Kichik korxonalar tarmog'ining rivojlanishi;
4. Mehmondo'stlik sanoatiga yangi kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi.

So'nggi yillarda to'la servisli an'anaviy mehmonxonalar bilan bir qatorda, taklif qilinuvchi xizmatlar to'plami qisqartirilgan ixtisoslashgan korxonalar paydo bo'la boshladi. Korxonalarning ixtisosligi har xil bo'lishi mumkin. Mehmonxonalar turistik bozorning muayyan segmenti vakillariga, masalan, o'z mehnat ta'tilini golf o'yiniga, chang'i sportiga, otda sayr qilishga va h.k.ga bag'ishlagan mijozlarga, kongresslar, ko'rgazmalar, yarmarkalar va h.k.da qatnashish uchun kelgan turistlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashishi mumkin.

Restoranlar, qoida tariqasida, milliy taomlar, nonushtalar, kechki ovqatlar tayyorlashga ixtisoslashadi. So'nggi yillarda gamburgerlar va qovurilgan

kartoshkaga (McDonald's), pitssaga (Pizza Hut, Domino, Little Geasar), bifshtekslarga (Sizzler), dengiz mahsulotlariga (Red Lobster), sendvichlarga (Subway) ixtisoslashgan tez xizmat ko'rsatish restoranlari butun jahonda ommaviylashdi. Bu nuqtai nazardan muayyan mavzuga, chunonchi: YOvvoyi G'arb, rok-n-roll, futbol, samolyotlar, temir yo'l va h.k.ga yo'naltirilgan restoranlar ham alohida diqqatga sazovordir. Odatda ular taklif qiluvchi taomlar soni cheklangan bo'ladi. Bunday restoranlarning vazifasi muayyan kayfiyat va muhitni tashkil etishdan iborat.

Mehmondo'stlik korxonalari ixtisoslashuvining chuqurlashishi xalqaro tarmoqlarning tashkil topishi bilan ham bog'liq. Bunday tarmoqlar xizmat ko'rsatishning yuksak andozalarini ishlab chiqish va amalga joriy etishda katta rol o'ynaydi.

Tarmoq deganda odatda jamoaviy biznes bilan shug'ullanadigan va tarmoq rahbariyatining bevosita nazorat ostida faoliyat ko'rsatadigan korxonalar guruhi tushuniladi. Tarmoq o'z binolariga ega bo'lishi yoki ularni ijaraga olishi mumkin. Tarmoq rahbariyati olingan daromadni taqsimlashda muayyan imtiyozlarga ega bo'ladi, biroq, ayni vaqtda, har qanday (shu jumladan, moliyaviy) operatsiyalarni amalga oshirish chog'ida ko'rilishi mumkin bo'lgan barcha zararlar uchun javob beradi.

90-yillarning o'rtalariga kelib butun jahon mehmonxona fondining 30% dan ko'prog'ini yirik mehmonxona birlashmalari va tarmoqlari o'z nazorati ostiga oldi. Boshqa aksariyat tendensiyalar singari, mehmonxona tarmoqlarining tashkil topishiga ham AQSHda asos solindi. 90-yillarning boshiga kelib, AQSH mehmonxona tarmoqlari jahonda etakchi mavqeni qo'lga kiritdi. Ular jahonning o'nta etakchi mehmonxona tarmoqlari qatoridan Evropaning Travelodge International va Master Hosts International tarmoqlarini siqib chiqardi. Hozirda bu o'nlikda Evropaning atigi ikkita mehmonxonalar tarmog'i – Accor (Fransiya) va Forte PLC (Buyuk Britaniya) qolgan (1.2-jadval).

Jahonning o'n eng yirik mehmonxonalar tarmog'i

T/r	Mehmonxonalar tarmog'ining nomi	Korxonalar soni	Nomerlarining umumiy miqdori	Korxonalar joylashgan mamlakatlar soni
1	Hospitale Franchise	4400	435 000	6
2	Holiday Inn Worldwide, Anlante	2031	365 309	62
3	Choise Hotels International, Silver Springs	3467	299 881	38
4	Best Western International, Phoenix	3401	276 659	60
5	Accor, Paris	2205	252 887	73
6	Marrioti Hotels i Recorts, Bethesda	898	186 656	27
7	ITT Sheraton Corp., Boston	417	129 937	61
8	Forte PLC, London	959	98 450	60
9	Hilton Hotels Corp., Beverly Hills	223	92 119	8
10	Carlson Hospitality Group, Minneapolis	368	83 258	39

Manba: BTT, 2003.

Mehmonxonalar xalqaro uyushmasi mehmonxonalar tarmoqlarini uch toifaga ajratadi:

- korporativ mehmonxonalar – ko'p sonli korxonalarga ega mehmonxona korporatsiyalari;
- bronlash umumiy tizimidan, marketing, reklama konsepsiyasidan va alohida korxonaga qimmatlik qiluvchi boshqa xizmatlardan foydalanish uchun birlashtirilgan mustaqil korxonalar tarmoqlari;
- boshqaruv xizmatlari ko'rsatuvchi tarmoqlar.

Mehmonxonalar tarmog'iga kiruvchi har bir mehmonxona turi o'z tamg'asiga ega. O'z firma nomini qat'iy saqlaydigan kompaniyalarning ustunligi shundaki, bir mehmonxonalar tarmog'i xizmatidan foydalanuvchi iste'molchilar mazkur tarmoqqa kiruvchi korxona qayerda joylashganidan qat'i nazar, unda ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Bu mehmonxonalar tarmoqlariga yangi mehmonxona ochilishidan ancha oldin uni reklama qilish va bronlashtirishni amalga oshirish imkonini beradi. Amaliyot

mehmonxonalar tarmog'i mehmoxona ochilishidan ancha oldin joylarni bronlashtira boshlashini ko'rsatadi. SHu paytdan e'tiboran mehmoxona nomi va uning barcha rekvizitlari mehmoxonalar milliy ro'yxatiga hamda turli maxsus ma'lumotnomalarga kiritiladi.

Mehmoxonalar tarmoqlaridan tashqari, jahon turistik bozorida asosiy maqsadi mehmoxona biznesining eng yaxshi vakillarini birlashtirishdan iborat bo'lgan uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Masalan, 1928 yildan beri «Jahonning etakchi mehmoxonalari» xalqaro korporatsiyasi dunyoning eng yaxshi mehmoxonalarini aniqlash bilan shug'ullanib keladi. U har yili o'zining maxsus katalogiga eng yaxshi korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtiradi. «Jahonning eng yaxshi mehmoxonalari va kurortlari» xalqaro tashkiloti ham 30 yildan beri shunga o'xshash faoliyatni amalga oshirib keladi. 1968 yildan «Jahonning eng osoyishta mehmoxonalari» xalqaro uyushmasi faoliyat ko'rsatadi. Bu uyushmaning shtab-kvartirasi Parijda joylashgan. Mazkur uyushmaga a'zo bo'lishda quyidagi uch mezonga baho beriladi: tabiiy va xushmanzara atrof-muhit; mehmoxonaning o'ziga xos qiyofaga ega bo'lgan shinam binosi va intereri; barcha zamonaviy talablarga javob beruvchi mehmondo'stlik, shu jumladan ovqatlanish.

Evropa iqtisodiy hamjamiyati mehmoxonalar va restoran milliy uyushmalari konfederatsiyasi (XORTEK) Evropadagi mehmoxona tarmoqlari hamda mustaqil mehmoxonalar va restoranlar uyushmalari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Mehmoxonalar tarmoqlarining miqdoriy o'sishi, ularning qo'shilishi va birlashishi (xizmat ko'rsatish muayyan darajada standartlashtirilganligi tufayli) turistlarning barcha rang-barang talablarini qanoatlantira olmaydi. Bu, o'z navbatida, o'ziga xoslikka va hech kimga o'xshamaslikka harakat qiluvchi kichik mustaqil mehmoxonalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Mutaxassislarning fikricha, XXI asrda aynan mana shunday, ya'ni shinam, qulay, mo'tadil narxlarda xizmatlar ko'rsatadigan, ishlash va dam olish uchun barcha shart-sharoitlarga ega

bo'lgan, restoransiz (restoran mehmonxona yonida joylashgan) mehmonxonalar mehmondo'stlik sanoatida etakchi o'rin egallaydi.

Amaliyot kichik mehmonxonalarning aksariyati mustaqil mehmonxonalar, ya'ni bunday mulkdan daromad oluvchi egasining erkin tasarrufida ekanligini ko'rsatadi. Boshqarish yoki birovning xizmat ko'rsatish belgisidan foydalanish masalalarida boshqa kompaniyalar bilan shartnoma majburiyatlarining mavjudligi korxonaning bozor munosabatlarining boshqa sub'ektlariga nisbatan mustaqil korxona sifatidagi maqomi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

So'nggi yillarda yangi kompyuter texnologiyalarining amalga joriy etilishi mehmondo'stlik sanoati korxonalari va tashkilotlarining professionalizmi va ish unumdorligini oshirdi, mehmonxona biznesini yuritish usulini tubdan o'zgartirdi, korxonalarning egalariga bir qancha muammolarni hal qilish imkonini berdi va mijozlarga juda ko'p qulayliklar yaratdi.

Iste'molchilarning talablarini qondirishga intilish turli foydalanuvchilarning ehtiyojlariga moslashishga qodir bo'lgan amaliy dasturlarni ishlab chiqishga turtki berdi. «Mehmonxona» («Otel») dasturi mana shunday dasturlardan biridir. U turistlarni qabul qilish, joylashtirish, ovqatlantirish va ularga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish texnologik jarayonlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan.

Ushbu dastur quyidagi bloklardan tashkil topgan:

- «Porte» avtomatlashtirilgan ish joyi;
- «Restoran» kichik tizimi;
- «Ombor» kichik tizimi;
- «Texnik xizmatlar ko'rsatish» kichik tizimi;
- «Buxgalteriya hisobi» kichik tizimi.

«Porte» ish joyida quyidagi funksiyalar avtomatlashtirilgan:

- nomerlar fondining yuklanishini prognoz qilish;
- rezervlashga oid ma'lumotlarni kiritish;
- turistlar va dam oluvchilarning rejalashtirilgan tashriflari uchun joylarni bronlash;

- mehmonlar tashrifini rasmiylashtirish;
 - turistlar va dam oluvchilarni ro'yxatga olish;
 - boshqa joyga ko'chirish;
 - alohida guruhlar va alohida dam oluvchilarning ma'lumotlarini o'zgartirish;
 - mijozlar bilan hisob-kitob qilish;
 - mijozlarning haq to'lashi va jo'nab ketishini nazorat qilish;
 - dam oluvchilar va turistlar guruhlarining jo'nashini rasmiylashtirish;
 - mehmonxonada yashovchilarni hisobga olish va ular haqida ma'lumotlar berish;
 - mehmonxona va uning asosiy bo'limlari faoliyati haqidagi hisobot hujjatlarini tuzish;
 - smenalar bo'yicha xodimlar ishining nazorat jurnallarini yuritish.
- «Restoran» kichik tizimi quyidagi funksiyalarni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan:
- turistlar guruhleri va dam oluvchilarning ovqatlanish grafiklarini tuzish;
 - buyurtmalardan kelib chiqqan holda menyu tuzish, bunda uning vaqti-vaqti bilan o'zgarib turishini hisobga olish;
 - ishlab chiqarishni boshqarish;
 - xizmatlar ko'rsatishni boshqarish;
 - individual buyurtmalarni hisobga olish;
 - hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish va boshqalar.
- «Texnik xizmatlar ko'rsatish» kichik tizimidan:
- nomerlar fondining joriy holatini tahlil qilish;
 - nomerlarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish uchun yopishni rejalashtirish;
 - muhandislik sistemalari va kommunikatsiyalar (energiya, suv, gaz, issiqlik ta'minoti, lift xo'jaligi, tele, radio, videokommunikatsiyalar va sistemalar va b.)ning joriy holatini tahlil qilish;

- muhandislik sistemalari va kommunikatsiyalarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash grafiklarini tuzish;

- mehmonxonada sanitariya-gigiena (temperatura, namlik, shovqin, yoritish darajasi va h.k.) normalarini ta'minlash va ular ustidan nazorat qilish uchun foydalaniladi.

Mehmonxona va restoran uzluksiz ishlashi uchun sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarining barcha turlari bo'yicha talabni aniq aniqlash zarur. Buning uchun omborda har xil mahsulotlar mavjudligi haqidagi axborot tizimi puxta va aniq ishlashi lozim. «Ombor» dasturi mana shunday axborot bilan ta'minlash imkonini beradi.

«Buxgalteriya hisobi» dasturi buxgalteriyaning barcha bo'limlari funksiyalarini, chunonchi: asosiy vositalar (fondlar), tovarlar, pul mablag'lari va moliya hisob-kitob operatsiyalarini hisobga olish, mehnat haqini hisob-kitob qilish, yig'ma buxgalteriya hisobi va hisobotni amalga oshiruvchi dasturiy vositalar majmuidir.

Mehmonxona korxonalarida boshqa bir qancha amaliy dasturlar («Rahbar», «Telefon ma'lumotnomasi», «Ish yuritish», «Kadrlar», «Marketing» va h.k.) ham qo'llanilishi mumkin.

Internet tarmog'iga ulangan bronlash va rezervlashtirish xalqaro tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanish mehmonxona korxonalari faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bunday tizimlarga quyidagilar kiradi: «AMADEUS», «Worldspan», «Galileo», «Sabre», «Fidelio Hotel Bank».

«AMADEUS» bronlash bilan shug'ullanadigan eng mashhur kompyuter tizimidir. U boshqa tizimlarga qaraganda ko'proq miqdorda xalqaro xizmatlar ko'rsatishga qodir. «AMADEUS» Hotels tizimi er yuzidagi 35 000 mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari haqida aniq ma'lumotlarni taklif qiladi. U mehmonxonaning joylashgan manzili, bo'sh o'rinlarning mavjudligi, ko'rsatiladigan xizmatlar to'plami va narxlar haqida ma'lumotlar beradi.

Mehmonxona xizmatlarini bronlash bo'limlari Internet tarmog'ida ham mavjud. Ularning eng mashhuri Travel Web dir. U 1996 yilda AQSHning «Pegasus Systems» kompyuter kompaniyasi tomonidan ochilgan. Travel Web jahonning 94 mamlakati, barcha etakchi mehmonxona tarmoqlari va 200 dan ortiq aviakompaniya haqida axborot beradi. Bronlashdan tashqari, u ma'qul mehmonxonalar va aviareyslarni qidirish tizimiga ham ega.

1.3. Zamonaviy mehmonxonalarning turlari

Mehmonxona ishining hozirgi rivojlanishi jahon amaliyotida mijozga (mehmonxona xizmatlaridan foydalanuvchiga) mazkur xizmatlar bozorlaridagi narx-navoga qarab ko'p variantli mehmonxona servisini taklif qiladi. Har yili ommaviy axborot vositalari ko'p sonli mijozlarga mazkur servis turidagi faoliyatning yangi shakllari haqida ma'lumot beradi.

Bundan 100 yil oldin joylashtirish korxonalarining faqat ikkita turimavjud bo'lgan:

- jamiyatning oliy tabaqasi vakillari uchun hashamatli mehmonxonalar;
- aholining qolgan qismi uchun karvonsaroylar.

Vaqtini yo'lda o'tkazishga majbur bo'lgan odamlarda tanlash imkoniyati bo'lmagan. Bugungi kunda mehmonxona mahsulidan foydalanuvchilarga joylashtirish korxonalarining rang-barang shakllari va turlari, chunonchi, iqtisodiy klassga mansub bo'lgan hashamatli otellar va mehmonxonalar, motellar, kempinglar va h.k. taklif qilinadi. Har bir odam o'z didi va puliga qarab o'zi uchun ma'qul variantni tanlash imkoniyatiga ega.

O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlari ancha jo'shqin rivojlanmoqda. Bu mehmonxona servisida band bo'lgan tijoratchilarga katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekiston bilan chet elda mehmonxona ishini tashkil etishdagi keskin tafovutlar asta-sekin yo'qolib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining mehmonxona korxonalari mijozlarga xizmat ko'rsatish

saviyasini, nomerlarning shinamligi va qulayligi darajasini, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasini izchil oshirib bormoqdalar.

Mehmonxona servisi korxonalarining rang-barangligi, shuningdek,, vaqti-vaqti bilan mehmonxona xizmati yangi-yangi turlarining paydo bo'lishi joylashtirish korxonalari tasnifi va tipologiyasini ancha shartli qilib qo'yadi. 1.3-jadvalda dunyoning aksariyat davlatlariga xos bo'lgan 7 har 54 xil toifa bo'yicha mehmonxona korxonalari 9 turining solishtirma tavsifi berilgan.

Zamonaviy korxonalar vazifasiga, sig'imiga, qavatlariga, konstruksiyasining tipiga, shinamlik darajasiga, foydalanish rejimiga (yillik, mavsumiy), joylashgan eriga (shahar, kurort va h.k.), ular nima maqsadga mo'ljallanganligiga, oziq-ovqat bilan ta'minlanganligiga, narx-navo darajasiga qarab farqlanadi. Loyihalash paytida bu omillarning barchasi hisobga olinadi va mehmonxona xonalarining tarkibiga, binoning me'morlik-tarx tuzilishiga va shu kabilarga ta'sir ko'rsatadi. Mehmonxonalarni tavsiflovchi asosiy belgilar: ularning sig'imi, necha qavatdan iboratligi, vazifasi va shinamlik darajasi.

1.3- jadval

Joylashtirish korxonalarining turlari va tavsifi

Turi	Hajmi	Joylashgan eri	Xizmat ko'rsatish	Narxi	Foydalanuvchi	SHartlari	Boshqaruv
1	2	3	4	5	6	7	8
Lyuks mehmonxona	Kichikdan o'rtagacha, 100-400 nomer	Iqtisodiy rivojlangan yirik shaxar	YUqori sifatli, xodimlari mehmonlarning xar qanday istagini bajarishga yaxshi tayyorlangan	Nomer narxi juda baland, xar xil xizmat turlarini o'z ichiga oladi	Korporatsiyalar-ning rahbarlari, ishbilarmonlar, yuqori darajadagi kichik konferensiyalar	Elitar, xonalar a'lo darajada bezalgan	Professional boshqaruvchi kompaniya
Mehmon-xona (o'rtacha toifa)	Yirikroq, 400-2000 nomer	SHaxar, mamlakat markazi	Keng xizmatlar ko'rsatiladi, xodimlar yaxshi tayyorlangan	Umumiy narxi o'rtachadan yuqori, barcha qulayliklar mavjud	Tadbirkorlar, individuallar, konferensiyalar va sh.k.	Qimmatbaxo mebel va jixozlar, katta foye, restoranlar	Professional boshqaruvchi kompaniya
Mehmonxona-apartament	O'rtacha, 100-400 nomer	Yirik shaxar	O'rtacha daraja. Vaqtinchalik yashash joyi sifatida foydalaniladi	Narxi yashash muddatiga qarab	Tijoratchilar va oilali turistlar, vaqtinchalik yashovchilar	To'liq mebelli kvartiraga o'xshash	Professi — onal boshqaruvchi kompaniya
Motel	O'rtacha, 150 — 400 nomer	SHahar atrofi	O'rtacha daraja	O'rtacha	Mehmonxona — dagiga o'xshash	Mehmonxo- nadagiga o'xshash, lekin arzonroq	Professional boshqaruvchi kompaniya, shaxsiy soxib
Iqtisodiy toifadagi mehmonxona	Kichkina, 10 — 150 nomer	Qishloq yoki shaxar atrofi, magistral yaqinida	Quyi daraja, xodimlari kam	Narxi uncha baland emas	Tunab qoluvchi avtoturistlar	Oddiy va tez xizmat ko'rsatiladi	SHaxsiy soxib

Xususiy mehmonxona (tunash va nonushta)	Kichkina, 10 — 150 nomer	Qishloq yoki shahar atrofi	Engil nonushta va kechki ovqat	Narxi oʻrtacha	Tijoratchilar va marshrutli turistlar	SHinam va qulay	SHaxsiy sohib
Kurort Mehmonxonasi	100-500 nomer	Jugʻrofiy oʻziga xosliklarga ega erlarda joylashgan (togʻ, dengiz, koʻl va sh.k.)	Barcha xizmatlar koʻrsatiladi	Narxlar oʻrtachadan yuqori	YAkka tartibda va oilaviy dam olish, gruppaviy tadbirlar: simpoziumlar, kongresslar va sh.k.	Sport inshootlari, qimmat restoranlar, apartamentli nomerlar bor	Mustaqil professio — nal boshqaruvchi kompaniya
Kondo — minimum tipidagi mehmonxona /taymshe	50 — 250 nomer. 4 — 5 nomerli aloxida binolar xam uchraydi	Kurortlarga oʻxshash (jugʻrofiy xususiyatla — riga qarab)	Kurortlarga oʻxshash, jamoaviy boshqarish va boshqa xizmatlar	Kvartiralar shaxsiy foydala — nuvchilarga sotiladi	Soxiblari moddiy naf koʻrish maqsadida foydalanadi	Sport inshootlari, foye, restoran, apartamentli nomerlar bor	Mustaqil professio — nal boshqaruvchi kompaniya
Tashkilot — larga tegishli uylar	Yirikroq, nomerlarga taqsimlash tartibi mavjud emas	Yirik tashkilot, xarbiy baza, kollej va sh.k.ning ajralmas qismi	CHeklangan, asosan oʻz — oʻziga xizmat koʻrsatish tartibi amal qiladi	Kompleks narx ovqat — lanishni oʻz ichiga oladi. Oldindan xaq toʻlanadi	Har xil toifaga mansub mijozlar. Tashkilotga ish yuzasidan kelgan shaxslar va h.k.	Anʼanaviy shinam kvartallarga oʻxshash	Federal hukumat, maxalliy maʼmuriyat, professio — nal boshqaruvchi kompaniya

2-BOB. MEHMONXONA QURILISHINI MILLIY VA ZAMONAVIY UYG‘UNLIGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLI

2.1. Eng zamonaviy, yirik va g‘aroyib dunyo mehmonxonalari

Institutional Investor («Boshlovchi investor») mahoratli jurnal har yili dunyo otellar ishi yakunlarini yilning yarmidan ko‘pini har xil qit‘a otellarida o‘tkazadigan tadbirkor odamlardan so‘rov asosida tahlil qiladi va ularning eng yaxshilarini aniqlaydi.

Shunday qilib, jurnal oxirgi bir necha yil mobaynida birinchi o‘rindagi «Otel» deb Bangkokdagi «Orient» otelini nomlaydi. Uning ketidan izma-iz Gonkonglik «Regent» va gamburglik «Yier Jahreszeiten», gonkonglik «Mandarin Oriental» va londonlik “Shangri – La” keladi.

Jurnalning oxirgi tadqiqotlari eng yaxshilar: gonkonglik «Regent Hong Kong», los-anjeleslik «Bel-Air», singapurlik «Shangri-La» ekanligini aniqladi.

Las –Vegasdagi (AQSH, Nevada) «MGM Cyrand» avvalgidek dunyodagi eng katta otel bo‘lib kelmoqda. Uning xona fondi 5005 ta mehmonlar uchun mo‘ljallangan xonalardan iborat. Otel 4 ta o‘ttiz qavatlik bonodan iborat va 45,3 ga maydonni egallagan. Otelning konferens –zali 15,2 ming joyga mo‘ljallangan. Bog‘i 13,3 ga. maydonga ega. Kazino 5793 m² joyni egallagan va to‘rtta alohida zaldan tashkil topgan. O‘rnatilgan o‘yin avtomatlari mingtagacha etadi.

Bazele shahrida joylashgan «Drei Konige am Rhein» oteli Evropadagi eng qadimiy otel hisoblanadi. O‘sha davr tarixchilarining ma’lumot berishicha, birinchi mijozlari uning ostonasini 1026 yildayoq bosib o‘tishgan.

Pudondagi (Xitoy) «Grand –Xayatt –SHanxay» oteli bugungi kunda shubhasiz dunyodagi eng yuqori otel hisoblanadi va 88 qavatli CHin –Mao –Tauer binosining yuqoridagi 35 qavatini egalagan.

San-Fransiskodagi «Xayatt -Ridjensi» oteli eng katta mehmonxona vestibuliga (107 metr uzunlik, kengligi 49 metr, shiftining balandligi 52 metr) egadir.

G'ildirakdagi mehmonxona sifatida avvalgidek «SHarqiy ekspress» Parij - Istanbul e'tirof etiladi. Uning uzunligi 501 metrni tashkil etadi.

“Everest ko‘rinishi” oteli dunyodagi eng yuqori cho‘qqilik otel hisoblanadi. U Namche (Nepal) qishloqchasidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda qurilgan. YAxshi ob-havo sharoitida uning derazalaridan g‘aroyib Everest manzarasi ko‘rinadi. Odatda balandlik tufayli 80% mehmonlar ko‘ngil aynash, bosh og‘rig‘i va uyqusizlikdan qiynaladilar. 1 minuti 1\$ lik kislorod xonalarga xizmat ko‘rsatishning eng ommaviy buyurtmasi ekanligi hayratlanarli emas.

Bugungi kundagi hamma ma'lumotnomalarida Longerbayen (Svaldbar arxipelagi, Norvegiya) orolida joylashgan «Qutubiy» oteli eng shimoliy mehmonxona hisoblanadi. Arxipelag bir nechta orollardan tashkil topgan va haqli ravishda Evropaning eng shimoliy nuqtasi hisoblanadi, uning 60%i abadiy muzliklar bilan qoplangan. Otelda hamma servisning yuqori me'yorlari tatbiq etilgan.

Eng qimmat apartamentlar – «Royal-Towers» (Atlantis, Bagama) otelidagi o‘n xonalik apartamentlar – sutkasiga 25000\$ ijaraga beriladi. Istiqomat qiluvchilar xizmatida ikkita ko‘ngil yozish markazlari, bar, xona royalli, idishlari sof oltindan ishlangan oshxona.

Perto-Rikodagi «Xayatt –Ridjensi Kerromar» oteli eng uzun basseynga ega. Uzunligi 541 metr. Umumiy maydoni 1,8 ga. Basseyn 5ta birlashuvchi suvda uchish joylar seksiyasi va tropik landshaft bilan o‘ralgan 14 ta sharsharadan iborat.

Las-Vegasdagi (AQSH, Nevada) «Beladjio» otel huquqini eng ko‘p sonli favvoralar bezaydi. CHiroyli suniy ko‘l minglab suvini 74 metr balandlikka otuvchi favvoralar bilan o‘ralgan. Favvoralar ishini kompyuter tartibga soladi.

Kechki va tungi paytlarda 4 mingta rang barang lampochkalardan tashkil etilgan, stereo-va ranglar musiqasi hamrohligidagi yorug‘lik yoqib qo‘yiladi.

Eng katta panno «Xitoy –bizning ulkan Vatanimiz» deb nomlanib, «SHangri –La» (Gonkong) oteli vestibulini bezab turadi. Panno uzunligi 51 metr, eni esa 14 metr. Bu pannodan zavq olishni eng yaxshi joyi otelni oynali liftining 41-va 56-qavatlar o‘rtasidagi kesmadadir.

Eng katta «Rolls-Roys» avtoparki butun dunyo bo‘yicha yoyilgan mehmonxona tizimiga ega «Peninsulo Grup»ga tegishlidir. Dastlabki 7ta «Kumush soyasi» modelidagi «Rolls-Roys» 1970 yilda sotib olingan edi. O‘sha paytdan beri kompaniya bu firmaning 50 ta avtomobilini sotib olgan. Oxirgi xaridi «Kumush shpora» modelidagi 9 ta avtomobil bo‘lgan.

Kompaniyaning gonkonglik filiali 14ta «Rolls-Roys» avtoparkka ega (13ta «Kumush shpora» va bitta «Fantom-2» modelidagi).

Bali orolining janubiy qismidagi Kuta qirg‘og‘larida dunyodagi birinchi musiqaviy otel ochilgan. Bu otelning nomi «Hard Rock Beach Club» («Rok-musika qasri») o‘ziga xos: otel zamonaviy musiqaga mo‘ljallangan va ayniqsa yoshlar o‘rtasida tez ommaviylashib ketdi.

417 ta xona bir nechta har biri maxsus musiqa uslubida: rok-n-roll, blyuz, psixodelik, reggi va alternativa asosida bezatilgan qanotlarda joylashgan. hamma xonalar yuzlab musiqa kliplari, kinolar va kompyuter o‘yinlari mavjud videodisklarni buyurtirish uchun tele va videoavtomatlari bilan jihozlangan. Har bir xonada istiqomat qiluvchilar xizmatiga audioavtomatlar.

Porte ustuni oldidagi o‘zgacha bezatilgan ochiq zal. Devorlar rok yulduzlar buyumlari bilan bezatilgan, markazda esa deyarli 24 soat musiqali kliplarni ko‘rsatuvchi ekran o‘rnatilgan. Kvadrat shaklidagi bar ustuni ustidan ko‘tarilgan sahnado jonli musiqa konsertlari o‘tkaziladi. SHu yo‘sinda, otel istiqomatchilari kelishlari bilanoq «Xard Rok» kafesida paydo bo‘ladilar.

Otel huzurida mehmonlar xizmatiga videodisklar kutubxonasi bo'lgan rok-markaz faoliyat ko'rsatadi. SHu erning o'zidayoq internet tizimiga ulanish mumkin. «Xard Rok Mega Star» magazinida zamonaviy musiqaning xohlagan yo'nalishiga bog'liq suvenirlar sotiladi. Karaoke zallarning birida otelning har bir mijozi o'zini vokalda sinab ko'rishi mumkin.

Otelda 24 soat mobaynida radiostansiya doimiy ravishda har xil axborot tarqatib xizmat ko'rsatadi. Otelda istiqomat qiluvchilar o'z shaxsiy musiqiy albomlarini professional studiyada yozishlari mumkin. Plyajda joylashgan ulkan basseyn markazida qumli orol bor.

«Rok-musika qasri»da istiqomat qilish unchalik arzon emas –xona uchun sutkasiga 150 \$ va undan yuqori. Lekin bo'sh joy deyarli bo'lmaydi.

Hozirgi kungacha saqlanib kelgan eng qadimgi to'xtashga mo'ljallangan hovlilar Polshada o'zining ish faoliyatini XII asrdan boshlab: Dushnikda, Prudnikda, Skshinda, Mislenitsda olib bormoda.

1790 yil Varshavada hamma qulayliklarga ega birinchi «Oq burgut ostida» oteli paydo bo'ldi, u Polshada eng yaxshi bo'lgan edi.

1788 yil Nantada qurilgan «Genrix IV oteli» Evropaning eng yaxshi oteli hisoblangan. Otelning xonalar fondi 60ta yotoq joyga teng edi, uning qurilishi esa 17,5 ming dollarga, o'sha vaqtdagi juda ham katta summaga aylangan.

Brayton (Angliya) kurort joyining diqqatga sazovor joylaridan biri XII asrdayoq qurilgan qasrdir. Uning hozirgi egasi Irving Xyuz uni otelga aylantirdi, uning ommaviylashishi g'aroyib krovatlar kolleksiyasi bilan tushuntiriladi.

Xyuz o'z istiqomatchilariga shunday deydi: «Eng qadimgilarida XII asrdayoq uxlashgan, siz shunday krovatlarda uxlasangiz sizga ham o'sha davrga xos tushlar kiradi».

Saxara cho'li bilan chegarada Tunisning eng ajoyib mehmonxonasi joylashgan. Qurilishlar qandaydir mahalliy qabilalarga tegishli va ulkan bochkalarga judayam o'xshaydi. Diametri 2-3 metr va uzunligi 3-4 metr bo'lgan

«bochkalar» ham bor. Ular toshlardan qilingan va loy suvalgan. Eshiklar – diametri 50sm. bo‘lgan teshiklar. Mehmonlarga cho‘l aholisi –beduinlar xizmat qiladi.

Las-Vegasda (AQSH, Nevada) 16 ta «tematik»otellar mujassamlashgan, ularning tashqi ko‘rinishi va intereri har xil joylar va davrlarni «xazinalar oroli»dan boshlab to «Venetsiyaning o‘rta asri»gacha o‘zida aks ettiradi.

Dunyoning eng g‘ayrioddiy va ajoyib mehmonxonalaridan biri – «Treetops Hotel» («Daraxt uchidagi otel») Keniyani tabiat bog‘larining birida joylashgan. Xuddi shu otelda 1952 yili Elezaveta II Angliya qirolchasi bo‘lganligini bildi. Otelning ajoyibligi shundaki, u bu so‘zning to‘g‘ri ma’nosida daraxning ustida joylashgan va uning oynasidan yovvoyi hayvonlar suv bo‘yida yiqilishini tomosha qilish mumkin. Bu haqiqatdan ham Afrikaning eng go‘zal burchaklaridan biri va nimaga ixtiyor ko‘proq berishni ham aniqlash juda qiyin: kraterga chiqqaninggami yoki «panjarasiz hayvonot bog‘ini» ko‘rganinggami. «Panjarasiz hayvonot bog‘i» – bu Viktoriya ko‘lida joylashgan kichkina Saa –Nune orolchasi (Mvanza shahari yaqinida, motorli qayiqda 10-15 minutlik yo‘l). Orol o‘ziga xos manzarasi bilan nooddiy: tabiiy haykaltaroshlik – tosh o‘ymakorligi, ular bilan ko‘p sonli afsona va rivoyatlar bog‘langan. Lekin turistlar va sayohatchilarni jalb qilish uchun asosiy «xo‘rak» bo‘lib, u erga atayin Keniyadan va Tanzaniyaning har xil hududlaridan olib kirilgan to‘qson turdagi yovvoyi hayvonlar xizmat qiladi. Bu «panjarasiz hayvonot bog‘i» tashrif buyuruvchilarga ko‘plab o‘tkir va kutilmagan kechinmalarni taqdim etishga tayyordir.

Avstraliya o‘zining ulkan to‘siqli rifdagi g‘aroyib suv ostidagi oteli bilan g‘ururlanadi. Bu otelda mehmonlar uchun mo‘ljallangan xonalarning oynalari dengiz sathidan pastda joylashgan bo‘lib ajoyib bo‘lgan suv osti manzaralaridan bahramand bo‘lishga imkoniyat yaratadi.

Ingliz hospitativity (mehmondo‘stlik) atamasi eski fratsuzcha hospice so‘zidan olingan bo‘lib nooddiy qabul qiladigan uy degan ma’noni beradi. Bu turlagi

tashkilotlarning qadimiysi Burgundiya «Hospice de Beaune» atalgan , shuningdek, «Hotel Dieu» ya'ni «Olloh uyi» nomi bilan ham mashhur va tashkil etilgan yili 1443 yil bo'lsa-da, shu kungacha muvaffaqiyatli vazifasini ado etib kelmoqda. Zamonaviy mehmonxona biznesini tashkil qilish va uni texnologiyalari bilan uzviy bog'langan «mehmondorchilik» atamasi kirib kelishiga va birinchi shunday tashkilot (bu qambag'allar uchun mo'ljallangan uy bo'lgan) ochilishiga zamonaviy mehmonxona ishini tashkilotchilari Burgundiya xazinasini Kansleri Nikolay Rolenga qarzdor hisoblanadilar. O'z davrida u soliqlarni o'ta jonkuyarlik bilan yig'uvchi hisoblangan va Fransiya qiroli Lyudovik XI ning hazilomus ogohlantirishi tufayli «Rolen qambag'allar uchun uy ochdi, vaholanki aynan uning karomati bilan ularning ko'pchiligi shu darajada qambag'allashib qolishgandi, bunda qandaydir tarixiy adolat bor».

Tashrif buyurganlarni «Hospice de Beaune» binosining ilhomlantiruvchi arxitekturasi hayratlantirmasdan qoldirishi mumkin emas: uning devorlari tosh o'ymakorligi bilan bezatilgan. g'ayrioddiy ichki hovlisi, har xil rangli yaltirovchi cherepitsiya bilan qoplangan o'tkir uchli tomi. Binoning o'rta asrlardagi kabi fasadi uni intereri– buning kichik bo'lmagan ulushi ajoyib rasmlar galariyasi hisoblanadi. Xazinalar ichida R. Van der Veydenga tegishli «Vahimali sud» kabi mashhur rasmlar ham o'rin olgan.

Bizning kunlarga dastlabki ko'rinishida saqlanib qolgan turar joylardan eng qadimiysi Sen-Albans qishlog'idagi (Angliya) turar hovlisi hisoblanadi, 795 yildagi hodisalarni yozuvli xronologiyasi uni o'sha davrda ham borligini tasdiqlaydi va «Olishayotgan xo'roz oldida» deb nomlangan. Norvegiyaning Tromse shaharida joylashgan otel ham ajoyibotlardan mahrum etilmagan. Yo'lak oldida lapland milliy libosi: ko'k, ustida koptok kabi katta qizil pomponli qalpoq kiygan shveysar kutib oladi. SHu erning o'zida u ham milliy libosni kiygan ayol – laplandka. Zero, shveysarlar libosi aniq chet el turistlari uchun mo'ljallangan

bo'lsa hamki (shahardagi hamma zamonaviy kiyinishadi), shuning o'ziyoq ma'lum bir kayfiyatni paydo qilmoqda.

Otelning o'zidayoq bir katta bo'lmagan yangilik bor: xonalar raqamlarga ega emas. Eshiklarda (mijozlar adashtirmasliklari uchun) har xil norvegiyaning orollar –Kvalyo, YAn-Maynen, Vestvoget va boshqalarni nomlari ko'rsatilgan.

Otel mijozlari shu zahotiyoq nooddiy bo'lgan muhitga kirishib ketadi va atrofdagi narsalarga boshqacha nazar orqali alohida qiziqish bilan qaray boshlaydi.

Kiotodagi eng qadimiy va hozirda ham o'zining ommaviyligini yo'qotmagan, imperator o'zi oldiga chaqirtirgan feodallar turgan qadimiy «Nidzo dzinya» mehmonxonasi hisoblanadi (Kioto qadimda YAponiya poytaxti bo'lgan). O'rta asrlar tinchsizlik davri bo'lgan va shuning uchun ham o'sha paytdagi mehmonxonalarni asosiy muammosi mehmonlarning xavfsizligini ta'minlashdan iborat edi. Aytish lozimki, o'rta asr kashfiyotchilari ozmuncha bo'lmagan aqlli qo'llanmalarni: sirli eshiklarni, «antiakustik» zallarni (eshitish mumkin emas, umuman hech narsani eshitib bo'lmaydi), baland tovush chiqaradigan, «kuylaydigan» pollarni (shovqinsiz o'g'rincha kirish mumkin emas) va hokazolarni o'ylab topishgan. Ammo imperator ham anoyilardan emasdi: u maxsus eshituvchi qurilma, shpionlar uchun bekatiq joylar, hatto istiqomatçilar oldidan birdan chiqib qamoqqa yoki ularni o'ldira oladigan soldatlar uchun niqoblangan inshootlarni ham ishlab chiqdi. Eng qizig'i, bu «texnik qurilmalar»ni ko'pchiligi hozirda ham ishlamoqda va «Nidzo dzinya» otelining bugungi kundagi ommaviylashishiga katta hissa qo'shmoqda.

YAponiyada qadimgi yapon milliy uslubidagi otellar muvaffaqiyatli raqobat olib boradigan Nikko rayoni bor. Xo'sh, pol ularda isitiladi va katta bo'lmagan matras (futonlar) solib, bosh tagiga esa kichkina yostiq qo'yib polni o'zida yotiladi. A'lo darajada tanlangan gullar buketi bilan hamohang guldon ajralmas qismidir. Bu erda asosiysi – ekzotika.

Turizm va dam olishning eng ommalashgan oteli Xakonedda hamma istiqomatchilarga kimono ajratiladi. Bu milliy (va ancha qulay!) libosda dam olish, restoranlarga borish, raqs tushish, konsert ko‘rish mumkin.

Otel mijozligiga qabul qilish maxsus ma’rosim –oyoq kiyim almashtirish bor. YUmshoq yashil tuflida vestibyuldan to xona eshiklarigacha yurib boriladi. Bu erda oyoq kiyim qiziliga almashtiriladi – unda faqat kirish ostonasida va yo‘lakchada yurish mumkin, lekin xonaning o‘zida (polda uxlashadi axir!) faqatgina to‘q sariq (oranjevyy) tuflida yurish mumkin.

Ryokan turdagi yapon otellari maxsus qiziqish jalb qiladi. Agar shunday aytish mumkin bo‘lsa, o‘ziga xos «antiotel». Unda hamma narsa teskarisiga. Masalan, oddiy otelda kechki ovqatga tayyorgarlik ko‘rib siz kostyum kiyasiz va restoranga chiqasiz. Duxi sepish, vanna qabul qilish, soqol olish – butun tualetni siz albatta o‘z xonangizda qilasiz. Ryokanda mehmonlar birga yuvinishadi, lekin hamma o‘z xonasida ovqatlanadi. Kechki (yoki peshingi) ovqatga kiyinshmaydi, aksincha echinishadi. Aniqroq aytganda, kimanoni kiyishadi, chunki unda kostyumga qaraganda onsonroq va kengroq. Oddiy otellarga kirish qismi yorqin yorug‘lashtirilgan, har xil turdagi reklamalar bilan bezatilgan, ryokanda esa bosh kirishga kam yorug‘lashtirilgan yo‘lcha olib boradi. Kirishda polda yumshoq tuflilar. Sizga hech qanday kalit berilmaydi xonalar qulfsiz. Har bir xona raqamlarga ega emas, balki shaxsiy atoqli nomiga ega : «To?», «Daraxt», «Ko‘l» va hokazolar. Otel mehmoni qaerda istiqomat qilishni tanlamaydi, uning uchun bu qarorni mezbon qabul qiladi. Ryokan egasi sizni o‘z uyida qabul qilayotgandek hisoblaydi, zero siz mijoz emassiz, balki mehmonsiz bu so‘zning dastlabki ma’nosida. SHuningdek, menyu ham yo‘q. Mehmonlarni mezbon ko‘rsatmasiga ko‘ra, ovqatlantirishadi. Taomlar narxini ham siz butun turgan vaqtingizga natijalar kiritish payti kelganida bilasiz.

O‘z xonangizga kirganingizda kutilmagan holatlar davom etadi: xona bo‘m –bo‘sh, unda hech narsa yo‘q. To‘shak buyumlari ham va ovqat (yuqorida aytilganidek)ham sizga har safar alohida olib kelinadi.

Ryokanning zaruriy va hattoki asosiy qismi furo – yapon milliy xammomi hisoblanadi. Ba’zi otellarning shunchalik mashhur yuvinishi borki, u erga shuning uchun mehmonlar keladi. Furo odatdagidek, isiq meniral manbada ishlaydi. Ba’zi bir cho‘milish havzalarida maxsus kanalchalar orqali boqqa, alohida terrasalarga va hokazolarga suzib chiqish mumkin. Qadimgi yog‘och, katta tog‘oraga o‘xshash furolar hozir kam qoldi, kafel, oyna, plastik kabilar ko‘p ishlatilmoqda. Bir qator cho‘milish xonalarida chinnigul, jasmin va hokazolar bilan xushbo‘y vannalar qabul qilish mumkin.

SHveysariyada alohida ommaviylikka ega Evropaning eng yuqorida turuvchi oteli tog‘larda 3452 metr balandlikda joylashgan. U yil bo‘yi ishlaydi.

Kasablankadagi (Marokko) eng yaxshi oteli bukletlarda va yo‘lboshlovchilarda «harbiy Saxaradagi eng yaxshi dam olish joyi» sifatida reklama qilinadi. Otelda maxsus haqiqatan ham g‘aroyib bog‘, basseyn, egarlangan tuyalar va bu otelning reklamasi alohida ta’kidlaganidek, «ular (tuyalar) har xil shampunlarda yuvinadilar».

Ko‘p shimoliy afrika otellarida har xil turdagi choy damlash usullarini ko‘rsatishni yoqtirishadi: bu mehmonxona tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxatiga kiritilgan. SHunday qilib, masalan, Saxara janubida asosan hind plitkali choyini ichishadi. Maxsus silindr idishga choy quyishadi, u erga undek maydalangan araxis yong‘oqlari, tuz solinadi, keyin butun aralashmani alohida charm mo‘yqalam bilan aralashtiriladi. SHimoli – sharqiy Saxarani mehmonxonalarida esa istiqomat qiluvchi mijozlarga achchiq damlangan myata mazali ko‘k choy tortiladi. Ovqatgacha shakarsiz, ovqatdan keyin esa juda shirin deyarli sirop quyuqligida tortiladi. Ko‘pchilik turistlar bu choy damlash uslublarini

ajoyib deb hisoblashadi va tadqiqotlarda xuddi o'sha otelni tanlash sababi sifatida choy damlash uslubini ta'kidlashadi.

Afrikaning eng yuqori tog'i bo'lgan Kilamandjaroda esa Tanzaniyaning bir nechta yaxshi otellari muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Kashfiyotchilik uchun, faraz qilish va botirlik uchun tadbirkorlar Braziliyaning eng yaxshi oteli deb, Manaus shaharidan o'n kilometr uzoqlikda, bu esa tropik changalzor bag'rida qurilgan otelni tan olishdi. Uning binosi sildr shaklida bo'lib 135 metr balandlikka ega. Otelning cho'milishga mo'ljallangan basseynlar oldidan oqib o'tadigan Amazonka suvi bilan ta'minlanadi.

Germaniyada qadimgi otellar va restoranlar juda ko'p. Asosan Veymar shahridagi «Elefant» otelini aytib o'tish lozim, chunki u 1521 yilda tashkil qilingan xalos. Unda hamma zamon va xalqlarning ko'plab mashhur kishilari to'xtagan, yozuvchilar esa o'zining qahramonlari Veymarda va albatta shu otelda istiqomat qilishlarini yozganlar.

Otelning tiklanishidan keyin (urush uni vayron qilgandi) 1955 yilda Fridrix SHiller o'limining 150-yilligini nishonlashga SHvetsariyadan kelgan ajoyib yozuvchi Tomas Mann o'z ismini alfavit kitobchasiga yozgan birinchi kishi bo'ldi.

Boy xaridorlar orasida dam olishni Fransiya, Ispaniya, Italiya, Angliyadagi aristokrat saroylarida o'tkazish moda tusiga kirdi. Saroy egalari odatdagidek juda yuqori titulli shaxslar, lekin daromadlarni ko'paytirishga muhtojlar, mehmonlarga «mulk illyuziyasini» sotishadi: mehmonlarga xizmat shunday ko'rsatiladiki, go'yoki ular bu qadimiy qasrlarning mashhur egalari hisoblanadilar. Turistik biznesning bu turi ochiqdan ochiq reklama qilinadi, aniq qaysi qasr ijaraga berilayotgani haqida maxsus kanallar orqali (shu jumladan, internet orqali) bilib olishadi. Ba'zida bu otellarning hisob-kitob blanklarida taxminan quyidagi mazmundagi yozuv bo'ladi:

«Biz sizga hisob-kitobni taqdim etarkanmiz, siz to‘lashingiz kerak bo‘lgan summa, bizning xizmatlarimizdan foydalanganda his qilingan yagona noxushlik bo‘lishiga umid qilamiz».

Xizmat ko‘rsatishga kelganda u hech qanday kamchiliklarsiz. Madaniy dastur ham e‘tiborsiz qolmaydi. O‘rta asr qasri bo‘lgan Bluada ham (Luara qirg‘oqlarida, Fransiyada) «CHiroq va Ovoz» tomoshasi namoyish etiladi. Tarix soyalari jonlanadi: qasr mehmonlari Janna d’Ark oyoq tovushlarini, qirollar suhbatlari va hokazolarni eshitadi. Bosh rol insonning faraz qilish qobiliyatiga tegishli – bunga albatta tarixiy fon, o‘rta asrlar muhiti va boshqalar hamohangdir.

Hududida sport musobaqalari vaqtida sportchilar joylashgan turar joylarning eng qadimiysi Olimpda qazib olingan, zamonaviy olimpiyada qishloqlarining bir turidir. YOzma yodgorliklar uni «laonidon» deb nomlashadi. Birinchi ta’kidlangan ma’lumotlarga qaraganda u eramizdan avvalgi IVasrga oid ekan. U o‘zi bilan o‘lchami 74x80 m bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakni aks ettiradi, atrofi yashash xonalari bilan o‘ralgan.

Krit orolining shimoliy qismi Kiossda arxeologlar tomonidan topilgan eng qadimiy turar joylari bir qavatli emas, balki ikki qavatlikdir. Bino yagona qirol saroyining ansambliga chiqardi va qiyin bo‘lgan rejasi bilan ajralib, Miken davridagi (eramizda avvalgi 1400 yil) juda yuqori darajali sivilizatsiyani aks ettirardi. Saroyga olib boruvchi yo‘l yuzida joylashgan karvonsaroy. Birinchi qavat xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak, devorlari chiroyli freskalar bilan bezatilgan kiruvchi xollga ega bo‘lgan. Xoll yonida sayohatchilar uchun mo‘ljallangan maxsus oyoq yuvish basseyini bilan jihozlangan kirish joyi bo‘lgan. Birinchi qavatda yana uncha katta bo‘lmagan vannaxonalar (issiq suv bilan ta’minlangan), omborlar, otxonalar, karvonsaroy mehmonlariga kerak bo‘ladigan birinchi zaruriy mahsulotlar bilan savdo shaxobchasi va hokazolar joylashgan. Ikkinchi qavat xonalar uchun mo‘ljallangan. Asosiy qiziqishni qozonda suv

qizdiradi va maxsus g'iloqlar orqali xonalarga, karvonsaroy basseyniga o'zatadigan inshoot (zamonaviy suv isitish tizimi) o'ziga jalb qilardi.

Xaldei hududidagi Ur degan joyda saqlanib qolgan xarobalarni arxeologlar eng qadimgi turar joy sifatida hisoblashadi. YOshi - 2 ming yil. Bu kamtargina bir qavatli, oshxonaga, yotoqxonaga va ko'p sonli otxonalarga mo'ljallangan inshootlar majmuasi edi, ular ko'cha tarafdin devorda qilingan uchta kirish olib boradigan ichki hovli atrofida joylashganlar.

1533 yil Parijda ochilgan Tour d'argent («Tur d'Arjan») restorani eng birinchi restoran hisoblanadi. Ikki asr davomida u nafaqat Parijda balki butun Fransiyada ajoyib tashkilot bo'lib kelgan.

Restoran biznesining mutaxassilariga restoran atamasi avtorini mashhur tashkilotchi va oshpaz (kulinar), uni yana XVI asrda faxrli «zamonaviy restoran otasi» tituli bilan taqdirlashgan inson bu M.Bulanje bo'lishini bilish juda ham qiziq bo'lsa kerak. O'shanda u Bael ko'chasidagi 24 soat ishlaydigan taverniyani boshqarar edi. Bosh taom u restorane (mustahkamlovchi, qayta tiklovchi) deb nomlagan sho'rva edi, shu erdan «restoran» degan nom kelib chiqqan. Lekin Bulanje bu sho'rva bilan cheklanib qolmadi va 1767 yili o'zining ajoyib bo'lgan «vino sousidagi qo'y go'shtidan sho'rvasini» yaratdi. Bu taom muvaffaqiyati hamma xursandchilik kutishlarini ham oshib o'tdi. Bulanje rivojlana borardi.

Juda tez orada uning «Le Champ d'Oiseau» (le SHan d'Uazo) restorani assortimentni kengaytirdi va nafis ishtahaga ega odamlarni sho'rva bilan birgalikda o'zining kashfiyotchilik va topqirligi mo'jizalari bilan ham hayratlantirardi. Bulanje taomlaridan birining yaratilish tarixi juda qiziq. U qo'shnilariga novvoyxonasiga kelishlari va pechkadan non olingandan so'ng u erda kartoshka pishirishga ruxsat berardi. Bir kuni uning miyasiga yangi taom g'oyasi kelib qoldi – kesilgan kartoshka qattiq bulon tuvagida, non pechkasida pishirilgan. U bu taomni boulangero potatoes (Bulanje bo'yicha kartoshka) deb nomladi.

1782 yilda Rishele ko'chasida birinchi qulayligi oshirilgan restoran ajoyib oshxonasi bilan yuzaga keldi. U «Grande Taverne de Londres» deb nomlandi, uch yildan so'ng Pale-Royaldan uzoq bo'lmagan joyda – yana biri «Aux Trois Frires Provencaux» tashkil topdi.

Birinchi mashhur amerikalik taverna – «Stadt Huys» 1642 yili gollandlar tomonidan YAngi Amsterdamda ochildi, o'sha paytdagi Nyu-York shunday nomlangan. Ko'pchilik kolonial davridagi turar-joylar va tavernalar nafaqat boy mehmondo'stlik an'analarga ega, balki boy tarixga ham egadirlar. Gollandiyalik Ist-Ind kompaniyasi «Stadt Huys»ni ochganidan keyin bir yil o'tar-o'tmas Bouling –Grinda «Kreiger's Tavern» ochildi. Fuqarolik urushi davrida bu taverna «King's Arms» deb nomlangan va ingliz generali Geydj shtabiga aylantirilgan. YAnada qizig'i «Fraunces Taverns» general Djordj Vashington shtabi bo'lgan va u o'zining tarixiy nutqini so'zlagan joy. Ikkala tavernalar hali ham faoliyat yuritmoqda.

Bevosita cho'lda joylashgan birinchi ekologik kurort tashkil qilindi. Bu turistik qishloqcha Dubaydan (BAA) uncha uzoq bo'lmagan erda tashkillashtirilgan va 25ta «lyuks» qasrlarga egalik qiladi.

Loyiha asosida cho'l hududiga xarakterli o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolishdir. Har bir kottedj o'ziga tegishli boqqa va basseynga ega. Mijozlar otda sayohat uyushtirish imkoniyati yoki tuyada sayr qilish, kamondan otishni mashq qilishi mumkin. Mijozning ixtiyoriy xohishi mahorat bilan o'qitilgan, sarguzasht turizmiga ixtisoslashgan arab gidlari jamoasi tomonidan bajariladi.

Mehmonxonalarning ichida birinchi bo'lib, Berlindagi «Artemiziya» mehmonxonasi faqat ayollarni joylashtirishni boshlagan edi. Oz muddatdan keyin bunday kategoriyadagi istiqomatchilarga xizmat ko'rsatishga gamburglik «Xansetin» oteli ham qo'shildi. Bu mehmonxonalarning xizmat ko'rsatuvchi xodimlari qat'iy ravishda ayollardan tashkil topgan. Intererda, dizaynda mashhur ayol – rassom-bezatuvchilarning eng yaxshi erishgan yutuqlaridan foydalanilgan.

Mehmonxona xizmatlariga bunday talab bo'lishi zaif jins a'zolari tomonidan quyidagilar: kuchli jins a'zolari tarafidan jinsiy tegajog'liklar, shovqinlar, mast orgiyalar va dam olishga xalaqit beradigan boshqa noqulayliklar bilan motivlashtiriladi.

Uchinchi ming yillik mehmonxonasi haqqoniy ravishda Fors ko'rfazining qirg'oqlarida 30 km² (75 akra) maydonda joylashgan «Chicago Bech Resort» mehmonxona kompleksi bo'ldi. Majmuaning asosiy elementi besh yulduzli «Resort Hotel», ajoyib xonalar fondiga ega, dam olish joylariga, banketlar va konferensiyalar o'tkazish uchun markazlarga, akvaparklarga, asosiy binodan uzoqroqda bo'lganlar uchun 21 villaga (luxury) va «Otel Minora» («Tower Hotel»), tashqi tarafi ulkan parusni elatuvchi, inshootlarga egalik qiluvchi. Buning hammasi suniy orolda joylashtirilgan. Balandligi 321metrga yaqin bo'lgan bu binoda 200 ta juda ham shinam (super luxury) xonalar sig'adi. SHunday qilib, «Tower Hotel» nafaqat uchinchi ming yillikka intilayotgan eng birinchi otel, balki eng yuqori mehmonxona binosidir.

Otelda joylashgan mehmonxona mijozlari orolga uch xil usulda : 28-metrlik qirg'oq va mehmonxona o'rtasida yotgan «bukr ko'priktan» foydalangan holda; doimiy ravishda shu kurs bo'yicha suzuvchi yaxta orqali yoki vertolyot, uning qo'nishi uchun otel korpusiga dengiz sathidan 212m balandlikda «yopishtirilgan» maxsus maydon tayyorlangan. Vertikal bo'ylab orasidan mehmonxona atriumi ham dunyoda eng yuqoridir.

Bino cho'qqisining bevosita yaqinida joylashgan restoran va barlariga nafaqat fors ko'rfazidan balki amirlik mamlakatlaridan to Omondan ham mijozlar kelishadi. «Tower»ning hamma xonalarini o'rtacha maydoni 550m² ga teng, dekoratsiyalangan va qadimgi haykallar va rasmlar bilan bezatilgan, shuningdek, zamonaviy rassomlarning buyuk asarlari bilan ham bezalgan. Xonalar fondining oynalari ko'rfaz tomon qaratilgan.

2.2. Xalqaro mehmonxonalarning rivojlanishi.

Evropa Ittifoqi (EI), AQSH, Kanada va Meksika o'rtasida tuzilgan erkin savdo to'g'risidagi shimoliy amerika shartnomasi kabi massiv bloklarga bo'lingan global iqtisodiy jarayonning qatnashchilari hisoblanadi.

EI nafaqat savdoga, balki mehnat va mablag'ning ko'chib yurishiga bo'lgan milliy cheklanishlarni ham yo'q qilgan iqtisodiy ittifoq hisoblanadi. Hamma qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasida paydo bo'ladigan o'zaro kelishuv ularning rivojlanishida ijobiy ta'sir etadi. EI ichida sanoat, tijorat va turistik aloqalarni rivojlanish ko'lamiga qarab mehmonxona xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj oshib boradi.

Erkin savdo to'g'risidagi shimoliy amerika shartnomasi uchta qiziqishga ega mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro turistlarni almashinuvi va savdoni ko'payishiga javoban mehmonxona biznesini aniq o'xshash tezlatgichi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Argentina, Braziliya, CHili va Venesuela ham kengaytirilgan, Ikki Amerika savdo bloki deb nomlanadigan ittifoqqa qo'shilishi mumkin.

Xalqaro savdo va turizm rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda, xalqaro mehmonxona korporatsiyalari qaysi yo'nalish bo'yicha rivojlanishini onsongina topish mumkin. Tinch okeani hududidagi mamlakatlarga turistlar oqimi oxirgi yillardagi kabi masshtablarda o'sib borishi kutilmoqda. SHu sababli Indoneziya, Malayziya, Tayland, Vetnam va Meksikadagi kurort otellarni rivojlantirish rejalashtirilmoqda. SHuningdek, SHarqiy Evropa mamlakatlarida mehmonxona industriasini keyingi rivoji uchun g'oyalar ham mavjud, Rossiyada va boshqa respublikalarda, eng avvalo sobiq Sovet Ittifoqiga kiruvchilarda: bu erda ba'zi mehmonxona kompaniyalari o'z strategiyalarini yangi binolar qurishdan eskilarini sotib olishga o'zgartirishdi.

Osiyoda Gonkongning tez su'ratlarda rivojlanishi qo'shni mamlakatlardagi jadal iqtisodiy o'sish va taminlovchilarning tushiga ham kirmagan soliqqa tortish tizimi bilan asoslandi. Gonkongda 16,5%li korporativ solig'i, 15%li umumiy soliq

ushlanadi va mablag‘ yoki dividenddan olingan foydaga hech qanday soliq solinmaydi. Ba’zi bir mehmonxona korporatsiyalari Gonkongda qarorgohlarga egadirlar, ular orasida Mandarin Oriental, Peninsula, Shagri –La – bularning hammasi butun dunyoda mashhur besh yulduzli otellardir. Ular korporativ soliqqa tortish kichik bo‘lgani uchun Gonkongda joylashishgan va boshqaruvchilar sifatida ekspatriantlardan alohida byurokratik harakatlarsiz foydalanish mumkin.

1989 yil gonkonglik New World Hotel (Holdings) Ltd. kompaniyasi Ramada, Inc., global darajada ko‘lamlashgan qo‘shilishni rivojlantirib, kompaniyasini sotib oldi. U o‘zining hamma mulkini, 108 ta Ramada International otellaridan va AQSH hududida joylashgan 14 ta Renaissance otellaridan tashqarisini sotib yubordi. Hozirda Ramada International asosan Evropa, SHimoliy Amerika va Osiyoda faoliyat yuritmoqda. Evropa bozorini u evropa mamlakatlarining umumiy bozorda o‘zaro aloqalarini yaxshilanganligi tufayli ko‘proq istiqbolli potensial sifatida ko‘rib chiqadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ular tomonidan siyosiy barqarorlikka erishish darajalariga qarab mehmonxona ishi umumiy iqtisodiy va ijtimoiy o‘rish bilan birgalikda boraveradi. Oxirgi bir necha yilda mehmonxona korporatsiyalarini rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratgan Sobiq SHarqiy Evropa mamlakatlari bloki, shuningdek, ilgari Sovet Ittifoqiga kirgan mamlakatlar bunga yaqqol misol bo‘lib xizmat qiladi.

2.3. Mehmonxona qurilishida mehmonxonalarni tavsiflovchi belgilar

Jahon mehmonxonalarni loyihalash va qurish amaliyotida ularni tashkil etishning har xil funksional sxemalari qo‘llanadi. Ammo bu sxemalarning barchasi mehmonxonalarda sodir bo‘luvchi murakkab texnologik jarayonlardan kelib chiqib tuziladi. Mehmonxona korxonasi aniq va qat’iy ishlashi uchun yuqorida zikr etilgan jarayonlarning talablariga rioya qilish zarur. Ayni vaqtda, mehmonxonalarning ichki faoliyatini tashkil etish prinsiplarida umumiy jihatlar

ham bisyor, chunki mehmonxonalardagi binolar va xonalarning asosiy guruhlarini taxminan bir xil. SHu bois har xil sig‘imli mehmonxonalarni funksional tashkil etishning prinsipial sxemalarini ishlab chiqish mumkin.

Binoga kirish joylarining miqdori mehmonxonani funksional tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Katta sig‘imli va shinamlik darajasi yuqori bo‘lgan mehmonxonalar odatda 3-4 ta kirish joyiga ega bo‘ladi:

- asosan mijozlar va boshqa mehmonlar foydalanuvchi asosiy kirish joyi (zamonaviy mehmonxonalarda bu kirish joyining usti avtomashinadan tushib binoga kirishni ta‘minlovchi soyabon bilan to‘silgan bo‘ladi);

- asosan shaharliklar foydalanuvchi umumiy ovqatlanish korxonalariga kirish joyi;

- mehmonxona va ovqatlanish bloki xodimlari uchun mo‘ljallangan bir yoki bir nechta kirish joylari;

- mehmonlar bagajini olib kirish va olib chiqishga mo‘ljallangan maxsus kirish joyi.

Bundan tashqari, mehmonxonaning xo‘jalik maqsadlari uchun mo‘ljallangan hovlisida yuklash-yuk tushirish maydonchasi (debarkader) bo‘lishi kerak. Bu hovli orqali mehmonxonaga toza choyshab, mebel, har xil ashyolar, muhandislik uskunalari, umumiy ovqatlanish korxonalari uchun xom ashyo va mahsulotlar olib kelinadi, shuningdek,, mehmonxonadan kir choyshablar, oziq-ovqat mahsulotlari chiqindilari, bo‘sh idishlar, axlat olib ketiladi. Respublikamizda amalda bo‘lgan sanitariya-gigiena talablariga muvofiq, toza choyshab va mahsulotlarni tushirish kir choyshab, oziq-ovqat mahsulotlari chiqindilari va axlatni yuklashdan alohida joyda amalga oshirilishi lozim. Yirik shaharlarda, ba‘zan kurortlarda joylashgan zamonaviy mehmonxonalarda xo‘jalik maqsadlari uchun mo‘ljallangan hovli ko‘pincha usti berk qilib quriladi va binoning poypesh yoki erto‘la qavatida joylashtiriladi. Bunday hovli puxta rejalashtirilib qurilgan hollarda hovliga

kiruvchi va undan chiquvchi avtomashinalarning marshrutlari mos kelmaydi va kesishmaydi.

Kichik sig'imli mehmonxonalarda ba'zan ikkita kirish joyi: asosiy kirish joyi va maishiy xizmat ko'rsatish xonalariga kirish joyi, shuningdek,, xo'jalik maqsadlari uchun mo'ljallangan hovlida yuklash va yuk tushirish maydonchasi qurish bilan kifoyalanadilar.

Mehmonxonalarning har xil binolari va xonalari o'z funksional vazifasiga qarab mehmonxonaning turar-joy, umumiy va xizmat ko'rsatish-xo'jalik qismlariga birlashtiriladi. Bu qismlar har xil joylashtirilishi hisobiga mehmonxonalarning hajm va maydon tuzilishi ham har xil bo'ladi. Mehmonxonalarni loyihalash va qurish amaliyotida bir nechta shunday tuzilishlar yuzaga kelgan. Quyida ularning asosiylarini ko'rib chiqamiz.

Joylashgan eriga qarab, mehmonxonalarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- shahar markazidagi mehmonxonalar;
- yo'l chetidagi, qoida tariqasida, kam qavatli, usti ochiq avtoqo'nalg'ali mehmonxonalar;
- shahar chetidagi va ayroportlardagi mehmonxonalar;
- suzib yuruvchi mehmonxonalar – dengiz, daryo yoki ko'l qirg'og'i yaqinida turistlarni joylashtirish va ular dam olishi uchun mehmonxona tarzida jihozlangan suzish vositalari. Zarur holda bunday mehmonxona turistlar bilan birga suv bo'ylab boshqa qo'nalg'aga ko'chirilishi mumkin.

Ko'rsatiladigan xizmatlar darajasi, assortimenti va bahosiga qarab, mehmonxonalar bir necha turga bo'linadi:

- arzon mehmonxonalar yoki ko'rsatiladigan xizmatlar miqdori cheklangan mehmonxonalar (bunday mehmonxonalar qoshida ovqatlanish korxonalari bo'lishi shart emas);

- «lyuks» mehmonxonalar – alohida loyihaga ko‘ra qurilgan, mebeli sifatining yuqoriligi bilan ajralib turuvchi, xonalari yaxshi jihozlangan, qoida tariqasida, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari miqdori nomerlari soniga nisbatan ko‘proq bo‘lgan mehmonxonalar.

Mehmonxonalarni shuningdek,, ularda harakat vositalari (transport)ning mavjudligiga, mulk shakliga (munitsipal, davlat, xususiy, ijaraga olingan va h.k.) qarab ham tasniflash mumkin.

Mehmonxonalarning shinamlik darajasi ularning texnik jihozlanishi, nomerlar fondining tarkibi va sifati, ko‘rsatiladigan xizmatlar to‘plami bilan belgilanadi. Aksariyat mamlakatlarda mehmonxonalar shinamlik darajasiga qarab tasniflanadi. CHet elda bunday tasniflashga nisbatan yondashuvda hozir ikkita asosiy yo‘nalish mavjud. Bir yo‘nalish «statik» belgilarni, ya’ni vanna va hojatxonali nomerlarning qat’iy belgilangan foiz nisbatini, mehmonxonada usti berk basseyn, sauna va boshqa shunga o‘xshash xizmatlarning mavjudligini, mehmonxona sig‘imi bilan xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar miqdori o‘rtasidagi ma’lum nisbatni va boshqa shunga o‘xshash holatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu yo‘nalish nisbatan yangi moddiy negizga qarab mo‘ljal oladi. Ikkinchi yo‘nalish «dinamik» omillarni, ya’ni servis xizmatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu yo‘nalish tarafdorlarining fikricha, mijozlarga lozim darajada xizmat ko‘rsatilmagan taqdirda, joylashtirish vositalari nisbatidagi qat’iy tenglik mehmonxonaning sifat standartiga muvofiqligini amalda ta’minlay olmaydi. Masalan, SHveysariyadagi mehmonxonalar tasnifi mana shu yo‘nalishga kiradi.

Mehmonxonalarni shinamlik darajasiga qarab tasniflash, bu darajalarni belgilash masalasiga nisbatan har xil yondashuv hamda aksariyat mamlakatlarda shinamlik darajasi bir xil mehmonxonalarga qo‘yiladigan talablarning har xilligi xalqaro turistik safarlarni tashkil etish chog‘ida jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi, mehmonxonalarning sifati va shinamlik darajasi to‘g‘risida qo‘shimcha axborot olishni taqozo etadi. Bunday ko‘rsatkichlarni bir xillashtirishga va shinamlik

darajasi bir xil mehmonxonalarga nisbatan yagona talablarni ishlab chiqishga bo'lgan urinishlar hozircha muvaffaqiyat keltirgani yo'q.

Katta sig'imli, shinamlik darajasi baland bo'lgan zamonaviy mehmonxona bugungi kunda ancha murakkab kompleks organizmga aylandi. Bu kompleks tarkibiga har xil vazifani bajaruvchi turli-tuman binolar va xonalar, chunonchi: turar joy binolari, mijozlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish, ommaviy-madaniy, maishiy xizmat ko'rsatish, ma'muriy binolar va xonalar, xizmat, xo'jalik, yordamchi, texnik binolar va xonalarning rivojlangan tarkibi kiradi. Bugungi kunda ishga doir uchrashuvlar uchun mo'ljallangan binolar (konferenszallar yoki ko'p funksional foydalanish uchun mo'ljallangan zallar), kinokonsert zallari, bal zallari, bank bo'limlari, basseymlar, saunalar, sport zallari, kegelbanlar, ko'rgazma tashkil etishga mo'ljallangan binolar, savdo korxonalari, garajlar ham zamonaviy mehmonxonalar tarkibidan keng o'rin olmoqda.

Odatda mehmonxonalarning har xil binolari va xonalari ma'lum funksional belgilariga qarab guruhlanadi. Bunday belgilar mehmonxonalarning binolari va xonalari o'rtasida sanitariya-gigiena va yong'in xavfsizligi talablariga javob beruvchi, mehmonxonadan foydalanishning qulayligini va unda yashashning shinamligini oshiruvchi qat'iy texnologik aloqalarni tashkil etish imkonini beradi. Turli binolar va xonalarning o'zaro aloqasini to'g'ri tashkil etishning qiyinligi shundaki, mehmonxonada yashovchi odamlar murakkab kompleks organizmning kundalik mehnatini ko'rmasliklari, balki faqat bu mehnat natijalaridan bahramand bo'lishlari kerak.

Mehmonxonaning shinamlik darajasi qancha yuqori va sig'imi qancha katta bo'lsa, uning tarkibiga shuncha ko'p har xil xonalar va binolar kiradi va u shuncha murakkab funksional tuzilmaga ega bo'ladi.

3-BOB. SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONALARINING QURILISHIDA MILLIY VA ZAMONAVIY UYG‘UNLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

3.1. Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati mehmonxonalarining qurilishidagi ijobiy o‘zgarishlar

Mana 24 yilki, Respublikamiz mustaqil demokratik jamiyat qurilishi, ijtimoiy–ma’naviy hayot, siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy taraqqiyot yo‘llarini bosib kelmoqda. Samarqand viloyati ham ana shunday murakkab va ma’suliyatli yo‘lni boshidan kechirmokda. SHahrimiz o‘zining 2750 yillik tavallud to‘yini sharaflari nishonladi. SHuncha yoshga kirgan shahar uchun 24 yillik taraqqiyot bu ko‘hna tarix oldida aytarliq muddat emas. Biroq, ana shu 24 yil ichida Samarqand shahri ijtimoiy moddiy va madaniy hayotida ko‘zga ko‘rinarli, e’tiborga loyiq va katga ishlar bajarildi.

Mustaqilligimizning birinchi kunlaridan boshlaboq Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov mamlakatimiz poytaxti Toshkent va boshqa nufuzli hamda tarixiy shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy–ma’rifiy, shaharsozlik va me’morchilikning rivojiga katta e’tibor qaratdi. Prezidentimizning nigohi tushgan ana shunday shaharlardan biri Samarqand bo‘ldi. Samarqandda biz so‘z yuritayotgan sohadaqi ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borildi.

Ulardan birinchisi shahar ko‘chalari, maydonlari, uning eng nufuzli tarkibiy qismlarini mustaqilligimiz rivoji, istiqlol mafkurasi, aholining maishiy turmush tarzi va bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda tartibga tushirish bo‘ldi.

Ikkinchi yo‘nalish bu shahar hududi bo‘ylab yangi ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga asoslangan maishiy-madaniy turmush, ta’lim-tarbiya, ilm-fan va iqtisodiy taraqqiyot, sanoat va ishlab chiqarish bozor va savdo ob’ektlarini qurish va joylashtirish bo‘ldi.

Uchinchi yo‘nalish, bu Samarqand shahrining tarixiylik va umumjahon mavqeini e‘tiborga olib shaharning tarixiy qismini, undagi me‘morchilik yodgorliklarini ta‘mirlash, qayta tiklash, zamonaviy ijtimoiy va turizm maqsadlariga moslashtirish va shu yo‘l bilan ularni kelajak avlodlar uchun asrab qolish sohasidagi ishlar bo‘ldi.

To‘rtinchi yo‘nalishdagi ishlar esa aholining dam olishi, shahar iqlimi, ekologiyasi va landshaftini yaxshilashga qaratildi, ya‘ni tashqi ochiq muhitni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, gulzorlashtirish, yangi bog‘ va parklar, xiyobonlar tashkil qilish va shakllantirish bo‘ldi.

Beshinchi yo‘nalish esa shahar kommunal hayotini yaxshilash, muxandislik obodonlashtirish va jihozlash, bu ishlarni amalda jonlantirishga qaratildi.

Ma‘lumki, bu yo‘nalishlarning barchasi me‘morchilik va shaharsozlik hamda shahar qurilishi ishlari bilan bog‘liqdir. Aynan shu maqsadda Mustaqillik yillarida Samarqand shahrini rivojlantirishning 2025–yilgacha mo‘ljallangan shaharsozlik bosh rejasi ishlab chiqilib tasdiqlandi va foydalanishga topshirildi. Unda yuqorida ko‘rsatilgan barcha yo‘nalishlardagi ishlar o‘z aksini topgan.



3.1-rasm. Samarqand shahri bosh rejasining sxematik chizmasi



3.2-rasm. Samarqand shahrini rivojlantirishning 2025 yilgacha mo'ljallangan shaharsozlik bosh rejasi

Endi e'tiborimizni ushbu yo'nalishlarda Samarqandda mustaqillik davrida bajarilgan ishlar tahliliga qaratsak.

Birinchi yo'nalish bo'yicha mustaqillik davrida shaharning har ikkala, ya'ni yangi va eski shaharlar markaziy qismlari va ularga tutashuvchi magistral ko'chalar yo'nalishlari to'g'rilandi, ularning eni kengaytirildi, yangitdan asfalt yotqizilib tekislandi, mustahkamlandi, ko'chalar atrofidagi trotuarlar, ariqlar obod holga keltirildi, daraxtlarning shakl-shamoyili kuzaldi, eskirganlari olib tashlanib yangilari ekildi, yangi ko'chalar qurildi, ular tasviriy oynalar va reklama elementlari bilan bezatildi. Bir so'z bilan aytganda mustaqillik yillarida dastlab shahar ko'chalari arxitekturasiga katta e'tibor berildi. Ularning funksional va badiiy-estetik muhiti yaxshilandi, me'moriy sifat darajasi oshdi [4]. Birok, bu ishlar shaharning faqat markaziy nufuzli me'moriy qismlari doirasidagina amalga

oshirildi xolos. Tushunish mumkinki, ular shaharda birinchi navbatda bajarilishi zarur bo'lgan ishlar qatoriga kirdi, ya'ni mustaqil hayot boshlaganiga endigina 24 yil to'lgan Samarqand shahrining imkoniyatlari doirasidagi ishlar asosan bajarildi.

Samarqand shaxrining yangi bosh rejasi asosida olib borilayotgan qayta qurish ishlarining asosiy maqsadi, uning tarixiy-madaniy markaz ekanligini yanada kuchliroq ifodalab, unga yangicha ijtimoiy - iqtisodiy mohiyat bag'ishlashdan iborat bo'lganligi quyidagi tadbirlarda o'z aksini topdi [3, 4]:

- shaharning mintaqadagi tarixiy - ma'rifiy markaz ekanligini ko'rsatish uchun Imom al Buxoriy, Maxdumi A'zam, Xo'ja Axror, Imom Maturidiy majmualari tiklanib obod kilindi;

- Afrosiyob kal'asi, Shoxi Zinda, Bibixonim me'moriy majmualari va boshqa yodgorliklar xududidan avtotransport qatnovi uzoqlashtirilib, ularning zararli ta'siri bartaraf etildi;

- XX asrda shahar xududida tasodifan paydo bo'lib, me'moriy yodgorliklar husnini buzayotgan va ularni qurishga to'sqinlik qilayotgan Ruhobod maqbarasi xududidagi "Tabbasum" kafesi, Spirt zavodi, hammom, televizion ustaxonalar boshqarmasi, tajriba zavodi kabi bir qator badiy ahamiyatga ega bo'lmagan binolar olib tashlandi. Registon me'moriy majmuasi atrofini to'sib turgan kinoteatr, restoran, univermag, chala yotgan uch qavatli xususiy bank binolari olib tashlandi. Me'moriy majmuaning Tilla Kori madrasasi orqa tomonidagi pala-partish qurilib qolgan xususiy imoratlar tomonidan yurtboshimiz g'oyasi asosida madrasa bezagiga mos tushadigan devor tiklandi;

- Davr taqozosi bilan iste'mol va ishlab chiqarish qobiliyatini yo'qotgan ulkan sanoat korxonalari o'rnida yangi ixcham ishlab chiqarish firmalari bunyod etildi;

- o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga imkon beradigan korxonalar shahar strukturasiga joylashtirildi;

- Yangicha shaharsozlik kuchlari-turizm industrinsi ob'ektlarini bunyod etishga katta ahamiyat berilmokda. Jumladan, 30 dan ortiq xususiy mexmonxonalar eski shahar stukturasiga o'rinlashtirildi.

Eng muhimi shuki, Afrosiyob qal'asini muzey qo'riqxonaga aylantirish, Spirt zavodi va Tajriba zavodlari singari sanoat korxonalarini eski shahar hududidan chiqarish masalasi so'nggi 35–40 yil davomida bir necha marta ko'tarilib kelinayotgan edi. Hattoki., 1976–yilda sobik O'zbekiston Sotsialistik Respublikasi Ministrlar Sovetining Afrosiyobni muzey–qo'riqxonaga aylantirish xaqida qarori ham chiqqan edi. Ammo, o'sha davrdagi qarorlar ham, loyihalar ham kog'ozda qolib ketaverar edi. Mana endi esa, qo'lansa hid va shovqin berib turgan sanoat korxonalari eski shahar xududidan chiqarilib, Afrosiyob qal'asi muzey–ko'riqxonaga aylantirildi. U erda osma metall arg'amchin yo'lini ko'rib, arxeologik ob'ektlarni kuzatish turistik marshrutini yaratish g'oyasi loyihalangan.

Samarqqanddagi tarixiy Abramov bulvari ham qayta tiklanib, unga yangicha funksiya berildi. Endi u "Universitet xiyoboni". Mustaqillik yillarida uning ko'kalamzorlari qayta qurilib, singan, qiyshaygan, qurib kolgan daraxtlar va butalar olib tashlanib, ularning o'rniga yangilari o'rnatildi. Xiyobon chegarasi zamonaviy panjaralar bilan bezatildi, yangi favvoralar va o'rindiqlar qurilib ishga tushirildi, to'shamalar yotkazildi. SHuningdek snos qilingan Samarqand spirt zavodining o'rnida, Registon me'moriy ansamblining oldi, yon va orqa tomonlarida, eski "SHoirlar xiyoboni" hududida. Viloyat hokimligi ma'muriyati maydonida, eski "Tabassum" qahvaxonasi hududida, opera va balet teatri oldida, yangi qurilgan "Afrosiyob" mehmonxonasi hamda "Prezident" oteli oldidagi hududlarda yangidan-yangi gulzorlar, favvoralar, sayrgohlar, ko'kalamzorlar bunyod etildi, ularga zamonaviy tus berildi.

Samarqandning zamonaviy mehmonxona binolari arxitekturasini bugungi kunda shaharda yangi qurilgan va qurilayotgan mehmonxonalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular turizm sohasi arxitekturasini shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda,

chunki ularning aksariyati bosh fasadi bilan ko‘cha tarafga chiqarilib, ko‘p hollarda ikki qavatli qilib qurilgan.

Bunday mehmonxona binolarining arxitekturasini tashqi ko‘rinishiga ko‘ra uch guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) Tamoman milliy me‘morchiligimiz an‘analari asosida qurilgan mehmonxonalar;
- 2) Zamonaviy arxitektura tamoyillari (uslublari) asosida qurilgan mehmonxonalar;
- 3) Arxitekturasi aralash uslubda shakllantirilgan mehmonxonalar;

Birinchi guruhga kiruvchi mehmonxonalar arxitekturasiga ko‘proq milliy me‘moriy shakllar va bezaklar xos bo‘lib, fasadda asosan koshinburush naqshlar, sirkor mayolika va parchinlar mavjud.

Ikkinchi guruhdagi mehmonxonalarga asosan keng oynavand fasadlar, kirish qismi–“ostona”ning bo‘rttirilishi, kursi, vujud va bino badiiy tugallik qismlarining alohida e‘tibor bilan ishlanishi xosdir.

Uchinchi guruhdagi mehmonxonalar arxitekturasida yuqoridagi sifatlarning kombinatsiyasini ko‘rish mumkin.

Mehmonxonalarning deyarli 70 % ida yozgi va qishgi dam olish joylari, ya‘ni zallar mavjud. Ayrim mehmonxonalarda hatto yozgi qismining maydoni qishgi zaldan bir muncha kattaroqdir. Buni to‘g‘ri hol deb tushunishimiz zarur, chunki aksari issiq kunlarimizning yoz paytida bo‘lib o‘tishi va, odatda, bahor va kuz kunlarida qishdagilarga ko‘ra ko‘proq mehmonlar kelishi kuzatiladi.

Sobiq sho‘ro va Mustaqillik davri jamoat binolarining ostonalarida binoning asosiy kirish qismini alohida me‘moriy bo‘rttirish, ya‘ni uni bino tarzidan oldinga alohida shakl sifatida chiqarish yoki bino balandligiga qadar ostonani oynaband bo‘rttirish shakllari keng tus olgan. Bularni biz zamonaviy me‘morchilikdagi ostona kompozitsiyasining ilg‘or an‘analari tarzida e‘tirof etmog‘imiz zarur.

Bugungi kunda bunda mehmonxonalar arxitekturasida, ularning hajmiy o'lchamlari, me'moriy rejaviy va badiiy echimlari va nihoyat o'ta qulayligi bilan sobiq ittifoq davrida qurilgan mehmonxonadan keskin farq qiladi. Bu mehmonxonalar odatda, 1 – 4 qavatli, shinam va qulay hovlilari qilib qurilgan. Hovlida va mehmonxona tarkibida mashinalar uchun joy, dolon, omborxona, erto'la, sauna (hammom), yozgi va qishgi oshxonalar, yashash xonalari, ish kabineti kabi asosiy funksiyaviy qulayliklar mavjud.

Hovli oldi va unga kirish maydoni obod holga keltirilib, go'zal landshaft ko'rinishiga yoki mo'jaz boqqa aylantirilgan. SHaxsiy mehmonxonalarning kirish joyi va tashqi devorlari, umuman nafaqat ichki balk tashqi muhiti ham shinam, estetik did bilan ishlanmoqda. Ularning me'moriy badiiy echimlariga diqqatga sazovordir. Aksariyat xususiy mehmonxonalarning tarkibida mo'jaz otma favvora yoki hovuzcha bunyod etilgan. Hovlining landshaft arxitekturasida echimi ham e'tiborga loyiqdir.

Ushbu o'zgarishlar xalqimizning xususiy mehmonxonalar arxitekturasiga alohida e'tibor berayotganini, ularning me'moriy echimi xalqimizning zamonaviy badiiy-estetik va iqtisodiy ehtiyojlariga mos holda shakllanayotganligini ko'rsatib turibdi.

Quvonchli tomoni shundaki, mustaqillik yillari zamonaviy xususiy mehmonxonalar arxitekturasida xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan milliy me'moriy an'analari izchil davom ettirilib kelinmoqda. Ko'pchilik mehmonxonalar alohida xususiy loyihalar asosida qurilmoqda. Natijada, Mustaqillik yillari mehmonxonalar arxitekturasida o'ziga xos yangi me'moriy uslub vujudga kelmoqda. Samarqand shahrida qurilgan mehmonxonalar arxitekturasida bunga misoldir.

Samarqand shahrida Mustaqillik yillarida qurilgan xususiy mehmonxonalar balandligi o'rta xisobda 1-4 qavatni tashkil qiladi. Samarqandning yangi shahar qismi uchun bu juda oz. Ayniqsa shahar markaziy qismi binolarining qavatlilikini

ko'tarmoq zarur. Buning uchun esa birinchi navbatda "Крытый рынок" dan pastdagi makrazga yaqin bo'lgan mustaqillik ko'chasigacha bo'lgan hududda kam qavatli eskirgan, yashashga noqulay hovlili uylarga to'la bo'lgan hududda yuqori qavatli va yuksak komfortli zamonaviy "Elitniy" turarjoy qurilishini mo'ljallamoq zarur.

Shuni e'tirof etish kerakki, arxitektorlarimiz keyingi yillarda yaratgan qator mehmonxona binolari foydalanish uchun qulay, soz va ko'rkamligi, ularning badiiy jihatdan xilma-xilligi bilan ilgari Sobiq Ittifoq davrida bir qolipda qurilgan ko'rimsizlikka, bir xil nusxadalikka chek qo'yilmoqda. Mehmonxonalarning yorug' va ravshan xonalari, keng oshxona va peshayvonlari, isitish sistemalari kabi qulayliklari uning me'moriy jozibasi bilan uzviy bog'langan.

Mehmonxonalarni yanada kattaroq, yozgi xona-ayvon va peshayvonni qulayroq, oshxonani milliy taomlar tayyorlashga moslab loyihalash, konstruksiyasini zilzilaga chidamli qilish, mehmonxonalar atrofini bog'—rog'lar, ko'kalamzorlar, ariqlar vositasi bilan obodonlashtirish kabi bir qator muammolarni echish me'morlarimiz zimmasidagi eng ma'suliyatli va dolzarb vazifalardan biridir.

Me'morlarimizning ijodiy ishlari ko'lamini ko'zdan kechirsak, so'nggi o'n yil ichida Samarqand shahri arxitekturasining kelgusidagi ulkan taraqqiyotini his etish mumkin. Bu o'rinda arxitekturaning g'oyaviy tomonlari, milliylik va zamonaviylikning birlashgan holda olib borilayotganligini ta'kidlashimiz lozim.

Samarqand shahri Mustaqillik yillari arxitekturasining o'ziga xos yo'nalishlaridan biri bu milliy va umummilliy arxitektura rivoji tamoyillarini hisobga olgan holda hayotga tadbiiq etishdir.

3.2. Turistik xizmatlarni tashkil etishda sayyohlar xavfsizligini ta'minlash yo'llari

Turizm samarali faoliyat ko'rsatishi va jo'shqin rivojlanishi uchun milliy va xalqaro sayohatchilar va dam oluvchilarning hamda ularga tegishli mol-mulkning xavfsizligini, shuningdek turistik faoliyat ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlash va ularni himoya qilish zarur. Jahon turistik tashkiloti ekspertlari buning quyidagi yo'llarini taklif etadilar:

- sayohatchilar va dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash qoidalarini ishlab chiqish va amalga joriy etish;
- jamoatchilikka axborot berish;
- shu jumladan favqulodda vaziyatlarda turistlarning xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning institutsiyaviy negizini vujudga keltirish;
- ikki tomonlama, mintaqaviy, submintaqaviy, mintaqalararo miqyosda va jahon miqyosida xalqaro hamkorlik.

Ayni vaqtda, turistlarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek turistik ahamiyatga molik joylarda xizmat ko'rsatish sifatining yuqori darajada bo'lishiga erishishni boshqa ijtimoiy yoki milliy manfaatlardan, xususan, qabul qiluvchi mamlakat hamda butun atrof muhit manfaatlaridan ajratish mumkin emas. O'z-o'zidan ayonki, turizm hamda turistlarni himoya qilish sohasida xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqish va amalga joriy etishda tashrif buyuruvchilar bilan qabul qiluvchilar manfaatlarining mushtarakligini ta'minlash zarur. Gap shundaki, turizm mamlakatga prostitutsiya, narkobiznes, qulfurushlik, kontrabanda, madaniy konfrontatsiya singari salbiy hodisalarni ham olib kirishi mumkin. qolaversa, o'zi tashrif buyurgan mamlakatda jinoiy unsurlarga to'qnash kelgan, tibbiy yordam olish, davlat organlarining himoyasiga umid qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan turist og'ir ahvolda qolishi mumkin.

Ekspertlar qayd etishicha, turistlarning xavfsizligini ta'minlash va turizm sohasida himoya turistik ahamiyatga molik mamlakatda yoki joyda ko'plab qoida

va qarorlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular nafaqat turistik faoliyat ma‘muriyati tomonidan, balki turli iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlarda, xususan:

- sog‘liqni saqlash;
- jamoat tartibi (politsiya, bojxona, chegara xizmati);
- moliya (soliq xizmati, banklar);
- savdo va maishiy xizmat;
- transport;
- energetika, kommunikatsiyalar;
- atrof muhitni muhofaza qilish;

- aholini ish bilan ta‘minlash va hududni rivojlantirish sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi boshqa bir qancha ma‘muriy organlar tomonidan ham bajarilishi lozim.

Turistik firmalar o‘zlari tashkil etuvchi turlarda sayohatchilarning xavfsizligini ta‘minlash talablarini bajarishdan bo‘yin tovlamasliklari kerak. Turistik faoliyat sub‘ektining turistik xizmatlarni majburiy sertifikatlashtirishdan bosh tortishi, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bo‘lishi, shuningdek sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib qo‘yishga yoki litsenziyadan mahrum qilishga sabab bo‘ladi». YA’ni har qanday turning barcha xavfsizlik parametrlari tekshirib ko‘rilishi kerak, aks holda u turistik bozorda amalga oshirilish mumkin emas. Ba’zi bir ma’lumotlarga qaraganda, turistlar to‘qnash keladigan har xil muammolar ko‘pincha ular sayohatning muayyan shart-sharoitlari, xususan, mamlakat, yashash, ovqatlanish xususiyatlari, chet elliklarga mahalliy aholining munosabati haqida oldindan ogohlantirilmaganligi bilan bog‘liq. Vaholanki, turist sayohatga taalluqli to‘liq va ishonchli axborot olish, shaxsiy xavfsizlik, o‘z huquqlarining himoya qilinishi, shuningdek o‘z mulkining asralishi huquqiga ega.

Turistlarni terroristik aktlardan va umuman jinoiy qilmishlardan himoya qilishga, shuningdek turistlarning iste'molchi sifatidagi huquqlarini himoya qilish, ularning sog'lig'ini saqlash va atrof muhitni muhofaza qilishga alohida e'tibor berish lozim.

O'z-o'zidan ayonki, turistlarning hamda turistik ob'ektlarning xavfsizligini ta'minlash va ularni himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari hamisha jinoyatchilik va zo'rlik ishlatishni bartaraf etishga, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilish va saqlashga (ayniqsa, turistik faoliyat hududida) yo'naltirilgan boshqa barcha qonun hujjatlariga bog'lab ishlab chiqilishi va qo'llanilishi lozim. Masalan, Turkiyada turizm bilan bog'liq faoliyat nafaqat turizm to'g'risidagi qonun bilan, balki alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlar, o'rmon, korxonalar, tashqi iqtisodiy faoliyat, reklama, ommaviy axborot vositalari, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar, muayyan xizmatlarga belgilangan davlat standartlari, shuningdek Jinoyat, Soliq, Bojxona kodekslari bilan ham tartibga solinadi.

Bundan tashqari, turistlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan asosiy xavf-xatarlar (kasallik, o'g'rilik, repatriatsiya)dan ularni sug'urtalashni ta'minlash, xususan, bu sohadagi kelishuvlarni, ayniqsa, sug'urta kompaniyalari, barcha turistik korxonalar va boshqa manfaatdor tomonlar (aholi, hokimiyat organlari) o'rtasidagi kelishuvlarni rag'batlantirish uchun zarur barcha chora-tadbirlarni ko'rish lozim.

XULOSA

Mehmonxona industriyasi iqtisodiy faoliyatning bir turi bo'lib, muayyan haq evaziga mehmonxona, motel, kemping, pansionat va boshqa joylashtirish vositalarida qisqa muddatli joylashtirishni tashkillashtirish bilan shug'ullanadi.

Joylashtirish vositasi deganda insonlarning vaqtinchalik yashashi uchun mo'ljallangan ixtiyoriy ob'ekt tushuniladi.

Jahon mehmonxonalarni loyihalash va qurish amaliyotida ularni tashkil etishning har xil funksional sxemalari qo'llanadi. Ammo bu sxemalarning barchasi mehmonxonalarda sodir bo'luvchi murakkab texnologik jarayonlardan kelib chiqib tuziladi. Mehmonxona korxonasi aniq va qat'iy ishlashi uchun yuqorida zikr etilgan jarayonlarning talablariga rioya qilish zarur. Ayni vaqtda, mehmonxonalarning ichki faoliyatini tashkil etish prinsiplarida umumiy jihatlar ham bisyor, chunki mehmonxonalardagi binolar va xonalarning asosiy guruhlarini taxminan bir xil. SHu bois har xil sig'imli mehmonxonalarni funksional tashkil etishning prinsipial sxemalarini ishlab chiqish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishda quyidagi masalalar qaraldi va o'rganildi:

- turizm sohasida mehmonxonalar xo'jaligining o'рни va ahamiyati o'rganildi;
- Jahonda qurilgan eng zamonaviy, yirik va g'aroyib dunyo mehmonxonalarini yoritib berildi;
- Mehmonxona qurilishida mehmonxonalarni tavsiflovchi belgilar mohiyatini ochib berildi;
- Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati mehmonxonalarining qurilishidagi ijobiy o'zgarishlarini yoritib berildi.

Samarqand shahri Mustaqillik yillari arxitekturasining o'ziga xos yo'nalishlaridan biri bu milliy va umummilliy arxitektura rivoji tamoyillarini hisobga olgan holda hayotga tadbiq etishdir.

TAKLIFLAR

1. Samarqand shahrining kelgusi taraqqiyotida mutaxassislar bilan maslahatlashgan holda shahar markazlarida yuqori qavatli mehmonxonalarni barpo etishni shahar qurilishining bosh rejasiga kiritishni taklif qilamiz;
2. Samarqand shahri markaziy ko'chalarni kengaytirish zarur;
3. SHahar xududini kengaytirish maqsadida institut va universitetlarni shaharga yaqin tumanlarga ko'chirishni taklif etamiz;
4. SHahar markazi ko'chalaridagi masalan O'zbekiston, Ferdavsiy, Amir Temur ko'chalarida joylashgan past xovli-joylarning o'rniga yuqori qavatli bino-inshotlar, mehmonxonalar barpo etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonuni//«Xalq so‘zi» gazetasi, 1999 yil, 14 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmonlar to‘g‘risi”dagi Qonuni, -T.: 1999 y 15 aprel.
3. Karimov I.A.. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: O‘zbekiston, 2009. -46-b.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qo‘ramiz. 7-tom. - Toshkent, 1999
5. Birjakov M.B. Vvedenie v turizm. – Izdaniya 9-e pererabotannoe i dopolnennoe. – Spb.: «Izdatelskiy dom Gerda», 2007. – 576 s.
6. Jukova M.A.Menedjment v turistskom biznese: uchebnoe posobie. 2-e izd., ster. M.:KNORUS, 2006. – S. 16-
7. Kabushkin N.I. Menedjment turizma: Uchebnik. 4e izd., stereotip. Mn.: Novoe znanie, 2004. – S. 35-36.
8. Mamatqulov X.M. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug‘ati. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 398 b.
9. To‘xliev N., AbdullaevaT. Ekologicheskiy turizm: sumnost, tendensii i strategiya razvitiya. –T.: O‘zbekiston, 2006. – s. 200.
10. Tuxliev N., Abdullaeva T. Основы безопасности в туризме. T.: Gos.nauch.izd-vo O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 367 s.
11. Tuxliev I.S., Qudratov G‘.X., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti. 2010. – 238 b.
12. Tuxliev I.S., Pardaev M.Q. Turizm bozorining shakllanishi, rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. – T.: “NOSHIRLIK YOG‘DUSI”, 2010. – 74 b.
13. Pardaev M.Q., Xalikulov A.N., X, A.Raximovlarning "Mexmonxona xujaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari" nomli monografiya T.: "Iktisodiyot" nashriyoti, 2013. — 44 bet..

14. Pardaev M.Q. Turfirmalar moliyaviy xo‘jalik faoliyati tahlili. Ma’ruza kursi. // I.T.Abdukarimov, I.S.Tuxliev va b. – S.: SamISI, 2011. – 184 b.
15. Bogolyubov V.S., Orlovskaya V.P. Ekonomika turizma – M.: Akademiya. 2005. – 119 s.
16. Menejment turizma: Основы менежмента: Учебник/ Red. kollegiya: Kvartalnov V.A. i dr. – M.: “Finansy i statistika”, 2003. – 133 s.
17. Ibragimov N.S. O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo‘llash: iqtisod fanlari nomzodi dis. – S.: SamISI, 2008. – 149 b.
18. Zalesskaya L.S., Mikulina E.M. Landshaftnaya arxitektura. - M., 1979.
19. Сычева A.V. Landshaftnaya arxitektura. – M., 2007
20. Uralov A.S. SHarq mamlakatlarining bog‘-park san’ati. – Samarqand, 2011.
21. Mashinskiy V.L. Istoriya landshaftnoy arxitektury. - M., 2006.
22. Raximov Z.O. Turizm destinatsiyalarida strategik rejalashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish. // Dis. ...i.f.n. – S.: 2012.
23. Usmanova D.K. Osobennosti formirovaniya turistskogo produkta i perspektivnye napravleniya ego razvitiya. Dis....kand.ekon.nauk.– S.: SamISI, 2009.– 157s.
24. Safarov B.SH. Mintaqaviy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqtisod fanlari nomzodi dis. – S.: SamISI, 2011. – 150 b.

INTERNET SAYTLARI:

1. www.uzbekturizm.uz
2. <http://lex.uz/uz/doc/act2008-07.html>
3. http://www.hotelline.ru/technology_article.php?news
4. <http://www.tourism.uz>
5. <http://www.tour.uz>
6. <http://www.uzdaily.uz/articles-id-17586.htm>
7. <http://samarkandtourism.uz>